

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

QOSIMJON SODIQOV
MAHMUD KOSHG‘ARIYNING «DEVONU
LUG‘ATI-T-TURK» ASARI

Toshkent – 2025

Ushbu risolada XI yuzyilda yashab ijod etgan ulug' tilshunos Mahmud Koshg'ariyning «Turkiy so'zlar devoni» («Dīvānu luyāti-t-türk») asariga bag'ishlangan bo'lib, unda kitobning turkiy tilshunoslik tarixida tutgan o'rni, unda keltirilan turkiy yozuv haqidagi ma'lumotlar, Yer yuzi xaritasi, olim tarafidan to'plangan qadimgi xalq og'zaki adabiyoti namunalari tahlilga tortilgan.

Risola oliy o'quv yurtlarining O'zbekiston tarixi, turkiy filologiya yo'nalishlarida bilim o'rganayotgan ilmi toliblar, shuningdek, ota-bobolarning yozma merisi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Risola "Devonu lug'ati-t-turk" asari medialoyihasi doirasida bajarildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Kengashi nashrga tavsiya qilgan.

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor **Boqijon To'xliyev**

filologiya fanlari doktori, professor **Qudratulla Omonov**

© Qosimjon Sodiqov, 2025 yil.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025 yil.

KIRISH

XI yuzyilda yashab ijod etgan ulug' tilshunos Mahmud Koshg'ariy (*Mahmūd bin-al-Husayn bin-Muhammad al-Kāshyarī*)ning «Turk so'zlari devoni» («Dīvānu luyāti-t-türk») kitobi turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo'q yodgorligidir. Shu asarining o'ziyoq olimni mashhurlik pog'onasining choqqisiga olib chiqdi.

Asar *dīvān* atalishining sababi, unda turkiy so'zlar muayyan izchillikda, qoidasi bilan keltirilganidadir.

Kitob muqaddimasida uning kimga tortiq qilingani ham aytilgan: «Buni ulug' Payg'ambar alayhi-s-salom martabasidagi hoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo'lmish sayyidimiz va ulug'imiz *Abu-l-Qāsim 'Abdullāh bin-Muhammadi-l-Muqtadā biamrillāh* ga armug'on qildim. Tangri unga uzoq umr, abadiy hurmat, baxtu saodatli hayot ato qilsin», deb yozadi muallif (TCД.30).

O'z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharqu G'arb ilm ahliga qadimgi turklarning tili va og'zaki adabiyoti, madaniyati, tarixi to'g'risida to'liq xabar beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan.

Asar muallifi kitobning yaratilish tarixini turkiy davlatlarning hukmronligi, turkiy tilning rivojlanib, mavqei orta borayotgani, turkiy xalqlar madaniyatining qo'shni sharq madaniyatlariga ta'siri bilan ham bog'laydi.

Koshg'ariy yozadi: «Ularning [turklarning] o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar» (TCД.29).

Mahmud Koshg'ariy turklar hukmronligi va ularning tilini o'rganish muhimligi borasida aytilgan bir hadisni ham keltirgan. U yozadi: «Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisopurlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni Payg'ambar alayhi-s-salomga nisbat berib, sanadi bilan aytgan edilar: Payg'ambar alayhi-s-salom qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o'g'uz turklarining (الثرك الغزیه) huruji haqida gapirganda, shunday degan edi: تَعَلَّمُوا لِسَانَ الثرك فان لهم ملكا طولا («Turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi»).

Hadisning to'g'ri yoki to'g'ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to'g'ri bo'lsa, turk tilini o'rganish vojib[zarur]dir; hadis to'g'ri bo'lmagan taqdirda ham uni o'rganish zarurligini aql taqazo qiladi» (TCД.29–30).

Mahmud Koshg'ariy o'z kitobini yozishdan burun turli o'lkalarini kezib, turkiy lahja va shevalarni chuqur o'rganib chiqdi; ularning o'ziga yarasha xususiyati, muhim qirralarini aniqladi; lug'at boyligini yig'ib, bir asarga jamladi. Yana o'sha xalqlarning doston va qo'shiqlaridan olingan she'riy uzindilar, otaso'zlari bilan o'z asarini ziynatladi. Bu to'g'rida uning o'zi yozadi: «Men turklar (ثركية), turkmanlar (ثركمانية), o'g'uzlar (اغزیه), chigillar (جكلیة), yag'molar (یغمايیه), qirqizlarning (قرقزیه) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini

to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Vaholanki, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim» (TCД.30).

Mahmud Koshg'ariy o'z ona tilisiga yuksak baho berib, uni «arab tili (العربية) bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, undan o'zib borayotgan turk tili (لغات الترك)» deb atagan edi (TCД.31).

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK» QO'LYOZMASI VA ASARNING TUZILISHI

Fanda «Devonu lug'ati-t-turk»ning bittagina qo'lyozmasi ma'lum, u ham bo'lsa, ilkin emas, keyingi davrga tegishli. Uni Muhammad bin-Abu Bakr Damashqiy otli kotib Shomda hijriy 664 yil, shavval oyining yigirma yettinchi kuni (= milodiy 1266 yil avgustining birinchisida), o'zi yozishiga qaraganda, Mahmud Koshg'ariy o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozmadan ko'chirib tugallagan (TCД.760–761). Ushbu nodir qo'lyozma hozir Istanbuldagi Millat Bosh kutubxonasida (Millet Genel Kütüphanesi. Kayıt No. Ar. 4189) saqlanmoqda (*qo'lyozmaning tavsifiga qarang*: DLT.xxxvi–xlii).

Qo'lyozma 320 varaqli (639 sahifadan iborat). Har betiga o'n yetti qatordan qilib matn bitilgan. Xati chiroyli, nasxda. Aytarli butun boshli matn qorada; oradagi bob va fasllarning sarlavhasi, boshlanishda turkiy misollar, shuningdek, sarlavha qilib berilgan harflar qizilda. Ba'zi sarlavhalar to'q qorada ajratib yozilgan. Matn bo'ylab turkiy misollar qorada yozilib, ustiga qizil chiziq tortib qo'yilibdi.

To'g'ri o'qilishini ta'minlash uchun turkiy o'rnaklarga harakat belgilari izchil qo'yib ketilgan. So'z-maqolalar o'trasi nuqtali yaproqsimon belgi bilan, to'rtlik-o'rnaklarning qatorlari esa doirachalar bilan ajratilgan.

Muhimi, asarga Yer yuzining xaritasi ham kiritilgan; unda tog'lar, cho'llar, suvlik va past tekisliklar, shaharlar qizil, sariq, to'q ko'k ranglarda ajratib berilgan.

Asarning boshlanishiga yirik harflar bilan «*Kitābu dīvāni luyāti-t-turki*» [ya'ni «Turk so'zlari devoni kitobi»] deb sarlavha qo'yilgan (MK.1a).

Sarlavhadan keyin kichik harflarda lug'atning tuzuvchisi qayd etiladi: *Ta'līf: Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad al-Kāshyarī raḥimahu-l-lahu* [ya'ni «Tuzuvchi: *Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad al-Kāshyarī* (Alloh u kishini O'z rahmatiga olsin)»] (MK.1a).

Shundan so'ng kotibning qisqacha so'zboshisi berilgan. Keyin basmala bilan asar muqaddimasiga ko'chiladi.

«Devonu lug'ati-t-turk» kitobi ikki – muqaddima va lug'at qismlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yaratilish sababi, o'sha zamonda turklar ishlatgan yozuv, ot yasalishi, otlar va fe'llardagi orttirmalar, lug'atning tuzilish prinsiplari,

turkiy qavmlarning bayoni, yerlashuv o'ri, turkiy tilning xususiyatlari, lahjalaridagi farqlar to'g'risida so'z yuritiladi.

Lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat. Bo'limlarning har qaysisi *kitāb* deb atalgan (DJIT.15):

Birinchisi, كِتَابُ الْهَمْزِ *Kitābu-l-hamzi* [ya'ni *hamza* (*alif*) bilan boshlanadigan so'zlar kitobi]. Alloh taoloning Kitobi (كِتَابُ اللَّهِ تَعَالَى *Kitābu-l-lahi taā'la*)ga tayangan holda [ya'ni unda *alif* harfi bosh o'rinda turgani bois], uni [*alif* ni] bosh o'ringa qo'ydik (الله so'zining hamda Qur'oni karimdagi Fotiha surasining *alif* bilan boshlanishiga ishora etilayotir).

Ikkinchisi, كِتَابُ السَّالِمِ *Kitābu-s-sālimi* [ya'ni tarkibida *sālim* (*alif*, *vāv*, *yā* harflari bo'lmagan so'zlar) kitobi].

Uchinchisi, كِتَابُ الْمُضَاعَفِ *Kitābu-l-mudā'fi* [ya'ni ikki undoshi bir xil bo'lgan so'zlar kitobi].

To'rtinchisi, كِتَابُ الْمِثَالِ *Kitābu-l-misāli* [ya'ni *vāv* yoki *yā* bilan boshlangan so'zlar kitobi].

Beshinchisi, كِتَابُ ذَوَاتِ الثَّلَاثَةِ *Kitābu-δ-δavāti-s-salāsati* [ya'ni qisqa unli sifatida o'qiladigan *alif*, *vāv*, *yā* harflari bor bo'lgan so'zlar kitobi].

Oltinchisi, كِتَابُ ذَوَاتِ الْأَرْبَعَةِ *Kitābu-δ-δavāti-l-arba'ti* [ya'ni *alif*, *vā*, *yā* harflari qisqa unli sifatida yoki [v], [y] deb o'qiladigan so'zlar kitobi].

Yettinchisi, كِتَابُ الْغُنَّةِ *Kitābu-l-ḡunnati* [ya'ni *ḡunna* lilar (tarkibida burun (dumog') tovushlari kelgan so'zlar) kitobi].

Sakkizinchisi, كِتَابُ الْجَمْعِ بَيْنَ السَّاكِنِينَ *Kitābu-l-jam' bayna-s-sakinayni* [ya'ni yonma-yon kelgan harakatsiz ikki undoshli so'zlar kitobi].

Asar muqaddimasi va har qaysi kitob basmala bilan boshlangan.

Har qaysi bob ikki qismga ajtarilgan: boshlab otlar, keyin fe'llar boblarga ajratilib, muayyan izchillikda keltiriladi.

So'zlarning ketma-ketligi ham arab lug'atchiligida ishlab chiqilgan prinsiplarga tayanadi: oldin ikki harflilar, so'ng uch, to'rt, besh, so'ng olti harflilar keladi. Yetti harflilar sanoqli.

O'rtasi sukunli va o'rtasi harakatli so'zlar ham ajratib beriladi.

Oldiga hamza va shunga o'xshash harflar orttirilgan so'zlar; keyin birinchi va ikkinchi harflari orasiga harf orttirilgan so'zlar; so'ng uchinchi harfidan keyin harf orttirilgan so'zlar beriladi.

Bundan tashqari, bu so'zlarning bosh va oxirgi tovushlari ko'zda tutuladi. Qoidaga ko'ra, lug'at keyingi harfi *bā* li so'zlardan boshlanadi (*āp* – ta'kid va kuchaytiruv yuklamasi); *ab* – «yo'q, emas» singari); so'ng boshqa harflarga ko'chiladi (*at*, *et*, *ot* («o't, o'lan»), *üç*, *er* singari).

Har qaysi bo'limdan so'ng o'sha bo'limning grammatik qoidasi keltiriladi.

Tushunilishi oson bo'lsin uchun muallif arabcha atamalarni qo'llagan.

Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'ati-t-turk»da eski uyg'ur yozuvi haqida ma'lumot berib, uning alifbosini ham keltirgan (MK.3b–4b,102b).

«Devonu lug'ati-t-turk» – qoraxoniylar davri turkiy tilining, turkiy lug'atchiligining ajoyib kashfiyoti. Ushbu asari bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo'yish bilan birga, ushbu sohani yuqori bosqichga olib

chiqdi. Qolaversa, Mahmud Koshg'ariy turkiy tilshunoslik rivojigagina emas, Sharq tilshunosligi, xususan, lug'atshunosligiga ham ulkan hissa qo'shgan olimlardan.

Asar turkiy tilshunoslikning yirik tarixiy grammatikasi, shuning bilan birga, qomusiy yodgorligi hamdir. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Kitobning ilmiy qiymati, muallifning yutuqlari shularning o'zi bilan cheklanmaydi. Ta'kidlamoq kerak, olim turkiy so'zlarning tuzilishi, tilning o'ziga xosligini inobatga olib, lug'at tuzishning o'ziga yarasha yangi bir usulini ishlab chiqdi. Shuning bilan u lug'atchilik amaliyotida katta kashfiyot qildi. Yutuqlaridan yana biri, asarda eski turkiy tillarning lug'at boyligi etnolingvistik, lingvomadaniy, qiyosiy-tipologik yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

Mahmud Koshg'ariy turkiy fonetika va fonologiyaning o'tkir bilimdoni, o'z davrining buyuk fonetistlaridan edi. U arab xatini turkiy tilga birinchilardan bo'lib tatbiq etgan, arab xati asosidagi turkiy yozuvning imlo qoidalarini ishlab chiqqan, uning ilmiy asoslarini bayon etgan olim. Mahmud Koshg'ariy tarafidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan yozuv prinsiplari yuzyillar osha to XX yuzyilning boshlariga qadar aytarli o'zgarishsiz ishlatildi. Turkiy tillar tarixida to'qqiz asrdan ortiqroq davr mobaynida yaratilgan arab yozuvi asosidagi matnchilik amaliyoti ana shu an'anaga suyanagan.

Qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo'shiqlaridan olingan uzindilar, iboralar, ko'plab misollar, shuningdek, sheva materiallari asar uchun manba bo'lib xizmat qilgan. Ishda so'z ma'nosini ochiqlash maqsadida tarixiy va etnografik ma'lumotlar, so'z bilan bog'liq rivoyatlar ham keltiriladi.

Yana bir jihati, «Devonu lug'ati-t-turk»da turkiy so'zlar, o'rni bilan, fonetik va fonologik, leksik-semantik, morfologik, stilistik, ba'zan etimologik jihatdan ham tahlil etilgan. Buning singari xususiyatiga ko'ra o'tmishda yaratilgan lug'atlar orasida turkshunoslikdagina emas, butun sharq leksikografiyasi, lug'atshunosligida unga tenglashadigani topilmaydi.

Aytmoq o'rinliki, hozirgi tarjima va tadqiqotlarda ma'nosi ochilmay qolayotgan atamalar ham bor, bu narsa turli tortishuvlarga olib kelmakda. Masalan, orqa qator, yo'g'on [a] unlisini ifodalash uchun *išbā'* (ya'ni «yo'g'on»), old qator [ā ~ e] uchun esa – *išmām* (ya'ni «ingichka») atamasi qo'llangan. Jumladan, اٹ so'zidagi *alif* harfini ikki xil talaffuz qilish mumkin: agar uni yo'g'on unli sifatida talaffuz qilinsa, «ot» (yilqi) tushuniladi; agar uni ingichka o'qilsa, «et, go'sht» bo'ladi. Ushbu fonetik holat lug'atda shunday berilgan: اٹ *at* – «ot»; yo'g'on o'qiladigan *alif* bilan (*bi 'išbā' i-l-alifi*) (MK.15a); اٹ *et* – ingichka o'qiladigan *alif* bilan (*bi 'išmāmi-l-alifi*); «et, go'sht» (MK.15a). Tag'in o'rnak: اء *ew* – «uy»; ingichka *alif* (ya'ni [e]) bilan (*bi 'išmāmi-l-alifi*) (MK.27a).

Unlining yo'g'onligini bildiradigan *išbā'* atamasi bilan izohlangan so'zlarga tag'in o'rnaklar: اء *Uč* – yo'g'on *alif* bilan (*bi 'išbā' i-l-alifi*); mashhur bir shaharning oti (MK.15b); ئو *to* – yo'g'on unli (ya'ni [o]) bilan (*bi-l- 'išbā' i*); undan tayyorlanadigan ovqatning oti (MK.268a).

Yoki *vāv* harfi turkiy matnlarda to'rtta unli fonemani anglatadi [o]–[ö] va [u]–[ü]. U ingichka unlini anglatganda *išmām* atamasi bilan izohlanadi. Lug'atda

berilishiga oʻrnak: *أوت* *öt* – devor va taxtadagi yoriq; *vāv* ingichka talaffuz qilinadi (*bišammati-l-vāvi*) (MK.17b); *أود* *öd* – «vaqt, zamon»; *vāv* harfi ingichka oʻqiladi (*bišammati-l-vāvi*) (MK.17b).

Mahmud Koshgʻariy ishlatgan *imāla* atamasining maʼnosini ham bilish kerak. Masalan, lugʻatda سيشن shaklida yozilgan soʻzga *bi-l-ʻimālati* (yaʼni «*imāla* bilan») deya izoh berilgan. Arabcha *imāla* atamasining maʼnosi «ogʻdirmoq; singdirmoq» boʻlib, choʻziq *alif* va qisqa *fatha* ning [e] ga moyil talaffuz qilinishini bildiradi. Muallifning ushbu izohida esa *yā* ning *fatha* (yaʼni [e]) qilib oʻqilishiga ishora etilmakda. Shunga tayangan holda, uni *seš* deb oʻqiganimiz durust; bu soʻz «kafolat» degani. Masalan: *men anar seš berdim* – «men unga kafolat berdim» (MK.249a). Yana oʻrnak: كيش *keš* – *imāla* bilan (*bi-l-ʻimālati*); «oʻqdon» (MK.249b).

Asarda keltirilgan turkiy oʻrnaklarda undosh tovushlarning ifodalanishi ham eʼtiborni oʻziga tortadi. Jumladan, [v] undoshi, Mahmud Koshgʻariyning izohiga qaraganda, ikki xil variantga ega: lab-tish [v] va lab-lab [w] tovushi. Matnda [w] undoshi [v] dan farqli oʻlaroq, ف yoki ف harflari bilan beriladi. Muhimi shundaki, ف bilan berilganlari asarning hozirgi zamon nashrlarida [f] deb oʻqilgan. Vaholanki, sof turkiy soʻzlarda [f] tovushi boʻlmagan; u oʻzlashgan soʻzlardagina keladi. Shunga tayanib, turkiy soʻzlarda kelgan ف ni [f] emas, [w] deb oʻqilgani toʻgʻri. Bu fikrning chinligini qoʻlyozmada bir soʻzning ikki xil yozilgani ham isbotlaydi: اف (MK.27a) // ew – «uy» (MK.268b); اف (MK.19a) // اف uwut – «uyat» (MK.268b) singari.

Chamasi, turkiy soʻzlarda [w] tovushi [v] ga qaraganda ustun edi. Shuni koʻzda tutgan shekilli, Mahmud Koshgʻariy kitobda keltirgan oʻn sakkiz harfli uygʻur alifbosida (MK.3b) harflardan birining vazifasi etib ف wā ni koʻrsatgan. *vāv* harfining vazifasiga kelsak, alifboda izohlanishicha, u faqat lab unlilarini (o–ö, u–ü) ifodalashi taʼkidlangan.

Turkiy soʻzlarda tishora [δ] tovushining ifodalanishi ham muhim. Bu tovush matnda ð harfi bilan beriladi. Tishora [δ] tovushi turkiy soʻzlarda [d] ga variant sifatida ichlatilgan. Bu fikrning chinligini asarda bir soʻzning ikki xil yozilgani ham isbotlaydi. Qizigi, yuqorida qayd etganimiz uygʻur alifbosida ham <δ> harfi berilgan, <d> esa yoʻq.

Ayrim tadqiqotlarda, qoʻlyozmada turkiy oʻrnaklarning yozilishida xatolar koʻp; uni turkiy tilni yaxshi bilmagan kishi koʻchirgan, degan qarashlarni ham oʻqib qoʻlamiz. Bunday fikrni yoqlab boʻlmaydi. Aksincha, kotib eski turkiyni juda yaxshi bilgan, oʻzi ham turkiylardan ekani aniq (buni kotibning asar boshlanishidagi soʻzboshisidan ham bilsa boʻladi). Matn qunt bilan koʻchirilgan, bilimli va yuksak koʻnikmaga ega xattotning ishi bu. Aftidan, bitguchi asarni koʻchirib boʻlgandan keyin ham, turkiy oʻrnaklarni qayta-qayta koʻrib chiqqan chogʻi; tuzatish kiritilgan oʻrinlar bor. Xattot hatto eski uygʻur xatini ham yaxshi bilgan, deya olamiz: bir necha oʻrinda yozgan misollari oʻta chiroyli; har kimsa ham bunday yoza olmaydi uygʻur xatini. Alloh rahmat qilsin u kishini, qoʻlyozmani koʻchirishda uzoq ishlagani, ancha ter toʻkkani bilinib turibdi.

Yana bir yutug'i, qo'lyozmada turkiy o'rnaklarning to'g'ri o'qilishini ta'minlash uchun ularga harakatlar (diakritik belgilar) izchil qo'yib borilgan. Ushbu grafik ishoratlar turkiy so'zlar talaffuzini aniqlashda qo'l keladi, qo'lyozma qadrini oshiradi.

Hoshiyadagi kiritmalar va matn to'liqligi masalasi

Yana bir jihati, «Devonu lig'ati-t-turk»ning qo'lyozmasida ko'p o'rinda hoshiyaga ham yonboshlatib misol va jumlar yosib qo'yilibdi (MK.: 15a,b, 16a, 18a, 20b, 24a, 58b, 66a, 75b, 80b, 87a, 95b, 110a, 114b, 123a, 128b, 144a,b, 147a, 152b, 160b, 161b, 165a, 171a, 173b, 183b, 186a,b, 190a, 193a, 197b, 200b, 203b, 205a, 212a, 213a,b, 214a, 215b, 217b, 222b, 274b, 289b, 292a, 295a betlarda). Bularni tasodifan tushib qolgan, ustidan o'qish chog'ida tuzatib chiqilgan, deb bo'lmaydi. To'g'ri, bunday yerlari ham bor: matnda tasodifan tushib qolgan ayrim so'zlar hoshiyaga ham chiqarib qo'yilgan. Yoki sahifa yakuniga sig'may qolgan bir-ikki so'z hoshiyaga qiyalatib yozib qo'yilgan.

Masalan: *oyuſdi* (ya'ni qovunni chaqmoqlashdi) so'zi keltirilar ekan, ma'nosi misil bilan ochiqqlangan. Biroq, bu fe'lining kelasi zamon va masdar shakllari – *oyuſur* va *oyuſmaq* so'zlari, joy yetmagani uchun, sahifaning oxiriga qiyalatib kiritib qo'yilgan (MK.69a).

Yoki: *enüclädi* («davoladi») fe'lining ma'nosi ochiqqlangan yerda ham uning kelasi zamon va masdar shakli – *enüclär* va *enüclämäk* so'zlari sahifaning oxiriga qiyalatib kiritib qo'yilgan (MK.76a).

Lekin, biz so'z yuritayotganimiz yozuvlar lug'atning butun boshli so'z-maqolalari yoki yirik jumladir. Ularni yo'l-yo'lakay unutib qoldirib, keyin qo'shib qo'yiluvini mumkin emas.

Masalan: To'rt harfli fe'llar bobida o'rtasi va oxiri *sukün* li bo'lgan so'zlar bo'limida *ettürdi* fe'li keltirilgan. Uning bir ma'nosiga shunday misol berilgan: *ol meniñ işim ettürdi* deydi, «u mening ishimni tuzatishga buyurdi» degani. Muhimi shundaki, ushbu so'zning boshqa bir ma'nosiga keltirilgan misol hoshiyaga bitilib, belgi bilan yuqoridagi matnga ulab qo'yilgan.

Mana o'sha misol: *ol etük ettürdi* deydi, «u maxsini, etikni va boshqa narsalarni yamashga buyurdi» degani. (Buning kelasi zamon shakli va masdari): *ettürür ettürmäk* (MK.58b).

Yoki: besh harflilarning *muḍā'af* bobida *iglälđi* («og'ridi, kasallandi»), *emlälđi* («emlandi, davolandi») so'z-maqolalari keltirilgan. Biroq *imlälđi* so'z-maqolasi hoshiyaga yozilib, belgi bilan ularning yakuniga kiritib qo'yilgan. Mana o'sha so'z-maqola:

kiſi imlälđi deydi, bu «kishi ko'z qiri va boshqa harakat bilan imlandi» deganidir. (Buning kelasi zamoni va masdari): *imlälür, imlälümäk* (MK.75b).

Buning singari qo'shimcha matnlar keyinchalik boshqa olimlar tarafidan to'ldirilgan deb ham bo'lmaydi: tili, xat uslubi bir. Demak, hoshiyadagi yozuvlarni kotibning o'zi keyinchalik asarning boshqa bir qo'lyozmasidan olib to'ldirgani oydinlashadi.

Taxminimizcha, kotib ushbu qo'lyozmani ko'chirish jarayonida uning ikki qo'lyozma nusxasiga tayangan ko'rinadi. Boshda u asarni bir qo'lyozma bo'yicha to'liq ko'chirib chiqqan. Qo'lyozmani ko'chirib tugatgach, uning qo'liga asarning boshqa bir eski va burungiga qaraganda to'liqroq nusxasi tushib qolgan. Bu nusxa, harqalay, uning o'zi asar yakunida ta'kidlaganidek, lug'at egasi o'z qo'li bilan tuzgan ilkin qo'lyozma bo'luvi kerak. Kotib ana shu ilkin qo'lyozmaga tayanib, o'zi ko'chirgan matn ustidan qayta ko'rib, burungisida uchramagan, tushib qolgan o'rinlarni ana shu yangi topilgan nusxadan olib, hoshiyalarga yozib chiqqan (ДЖТ.9; ТЦД.15–16). Hatto, bir harfga qo'yilgan ikki xil diakritik belgini ham ko'proq o'sha, o'zi ta'kidlagan, muallif nusxasiga tayanib qo'yib chiqqan bo'luvi ham mumkin. Bular masalaning bir tarafi.

Yuqorida aytilgan mulohazalar boshqa bir to'xtamga ham olib keladi. Kotib Muhammad bin-Abu Bakr Damashqiy foydalangan ikkita qo'lyozmani asarning ikki xil varianti desa ham bo'ladi. Damashqiy ko'chirgan qo'lyozmaga kiritilgan qo'shimcha jumalarga (bu o'rinda hoshiyaga bitilgan matnlar ko'zda tutilayotir) qaraganda, ularning orasida farq bor. Chamasi, muallif asarni yozib tugatgach, undan nusxalar ko'chirilgan. Oradan bir muddat o'tib, asarni to'ldirish, matnga qo'shimchalar kiritishga ehtiyoj tug'ilgan. Natijada asarning yangi bir varianti ham yuzaga kelgan chog'i. Mahmud Koshg'ariy o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozma ularning to'lig'i va qayta ishlangan varianti edi. Damashqiy ham ana shu nusxadan olib, o'zi ko'chirgan matniga qo'shimchalar kiritgan. Shunday qilib, «Devonu lug'ati-t-turk»ning fanga taniqli, hozircha yolg'iz sanalayotgan ishonchli qo'lyozmasi yaratildi.

Fikrimizcha, kotib ushbu qo'lyozmani ko'chirishda asarning ikki qo'lyozma nusxasiga tayangan. Boshda u asarni bir qo'lyozmadan olib, to'liq ko'chirib chiqqan. Qo'lyozmani ko'chirib bo'lgach, uning qo'liga asarning boshqa bir eski, burungisiga qaraganda to'liqroq nusxasi kelib tushgan. Bitigchi ana shu nusxaga tayanib, o'zi ko'chirgan matn ustidan qayta ko'rib, burungisida uchramagan, tushib qolgan o'rinlarni ana shu nusxadan o'lib, hoshiyalarga yozib chiqqan ko'rinadi. Shuning o'zidanoq asarning bizgacha yetib kelmagan yana ikki nusxasi bo'lgani ayon; hozir fanga tanilgan to'liq qo'lyozma esa uning uchinchi nusxasidir. Bulardan tashqari, asarning yana qancha nusxasi bo'lgani biz uchun yashirin. Lekin ochiq ayta olamizki, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asari ilk va o'rta asrlar tilshunosligida dovrug' qozongan va uning qo'lyozmalari ham keng tarqalgan edi.

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK»NING ILMIY NASHRLARI

«Devonu lug'ati-t-turk» fanga ma'lum bo'lgandan buyon mutaxassislar e'tiborini o'ziga tortib kelayotir.

Asarning ilk nashrini amalga oshirgan bilim kishisi Kilisli Rifatdir. U 1915–1917 yillarda Istanbulda asarni o'zi yaratilgan tilda, arabcha bosma harflatda uch kitob shaklida chop ettirgan edi (*qarang*: DLT,lxx).

«Devonu lugʻati-t-turk»ning ilk turkcha oʻgirmasini Besim Atalay yaratdi. Uning oʻgirmasi 1939–1941 yillarda Anqarada uch kitob holida chop etildi.

Besim Atalayning turkcha nashridan boshlab kunimizgacha asarning turk, oʻzbek, uygʻur, ingliz, fors, rus, ozarbayjon tillariga ogirmalari yaratildi (*nashrlar ochiqqlamasiga qarang*: DLT, lxx–lxxviii). Ayniqsa, uning turk, oʻzbek, uygʻur, rus tillarida qayta-qayta chop etilgani katta hodisadir.

Oʻzbekistonda «Devonu lugʻati-t-turk»ni oʻzbek tiliga birinchilardan boʻlib oʻgirib, chop ettirgan olim S. Mutallibovdir. U 1960–1963 yillarda asarning oʻzbekcha tarjimasini chop ettirdi.

Asarning A. Rustamov tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasini Moskvada nashr ettirildi.

Q. Sodiqov ham «Devonu lugʻati-t-turk»ni 2017 yili Toshkentda va 2021 yili Istanbulda nashr ettirdi.

Asarning muhim ilmiy tarjima nashrlari quyidagilardir:

Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi. Çeviren Besim Atalay. – Ankara, Cilt I: 1939, II: 1940, III: 1941.

Маҳмуд Қашғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I–III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент, 1960–1963.

مه هموت قه شغه رى. توركى تىللار ديوانى (ديوانو لۇغاتيت تورك). 1-3. اورومچى. 1981-1984.

Maḥmūd al-Kāšgarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīvānu luḡāt at-Turk). Edited and Translated with Introduction and Indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Harvard University. Part I: 1982, II: 1984, III: 1985.

Divan-ü Luḡat-it-Türk. Yazan: Kaşgarlı Mahnut. Farsça'ya çeviren: Hüseyin Düzgün. – Tebriz, 2004.

Махмуд ал-Қашғари. Диван Лугат ат-Турк. Перевод, предисловие и комментарии З.-А.М. Ауэзовой. Индексы составлены Р. Эрмерсом. – Алматы, 2005.

Mahmud Kaşğari. Divanü lüğat-it-türk. Cild. I–III. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: Ramiz Əskər. – Bakı, 2006.

Махмуд ал-Қашғари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). Перевод с арабского А.Р. Рустамова под редакцией И.В. Кормушина. Том 1. – Москва, 2010.

Kâşgarlı Mahmud. Dîvânu Lugâti't-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu. – Ankara, 2014.

Маҳмуд Қашғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.

Махмуд Қашғари. Дивану лугати-т-турк (Свод тюркских слов). Перевод на русский язык с комментариями академика Алийбека Рустами. В трех томах. Том 1. – Ташкент, 2017.

Маҳмуд Қашғарий. Туркий сўзлар девони [Dīvānu luḡāti-t-türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Истанбул: «Akademik Kitaplar», 2021.

«Devonu lug‘ati-t-turk» qo‘lyozmasining faksimil nashrlari:

Kaşgarlı Mahmud. Dīvānū Lūgati‘t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.

مه همۇد كاشغەريي. تۈركىي تىللار دىۋانى (دىۋانۇ لۇغەت التۈرك). فاكسىمىل. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى. 2008.

Asar fanga ma‘lum bo‘lgandan buyon, o‘tgan yuzyil oralig‘ida tekstologiyada, xususan, uning o‘girma nashrlarini yaratish borasida o‘zgarishlar, siljishlar yuz berdi. Asarning ilk nashrlari bilan hozirgilari o‘rtasida sezilarli farq bor: matn bir, lekin unga yondashuv prinsiplari turlicha; keyingilarida turkologiyada erishilgan so‘nggi yutuqlar, bilim kishilarining asar tili, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili va shevalariga bo‘lgan yangicha yondashuvlarini kuzatish mumkin. Nashrlar borgan sayin o‘sha davr tilini o‘zida aniqroq aks ettira boshladi. Asardagi turkcha matnlarni transkripsiya yoki transliteratsiyaga o‘girish, so‘zlar va jumlar ma‘nosini ochiqdash, maqol va she‘riy uzindilarni talqin qilish borasida o‘ziga xos qarashlar, yangi-yangi talqinlar yuzaga chiqmoqda. Kezi kelganda, devon tekstologiyasi borasidagi ishlar ham mukammallasha borayotganini ham tan olmoq kerak.

MAHMUD KOSHG‘ARIY KELITIRGAN UYG‘UR ALIFBOSI

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida eski uyg‘ur yozuvi haqida ma‘lumot berib, uning alifbosini ham keltirgan. Olimning turkcha xat haqida yozganlari, u keltirgan alifbo tizimi turkiy tillar va yozuv madaniyati tarixi uchun o‘ta ahamiyatlidir. Otmishdan qolgan tarix kitoblari, grammatik asarlarda keltirilgan budan boshqa alifbolar ham bor. Lekin ularning hech biri o‘z aniqligi va to‘liqlig‘iga ko‘ra, Koshg‘ariy alifbosi va u keltirgan izohlarga tenglasha olmaydi.

Koshg‘ariy o‘z lug‘atida turkiy so‘zlar va ularning ma‘nosini izohlash uchun keltirgan o‘rnaklarni arab xatida bergan. Lekin o‘sha zamonda turklar qo‘llagan yozuv haqida xabar berar ekan, boshqa bir yozuv – hozir fanda «uyg‘ur yozuvi», «uyg‘ur xati» deb atalayotgan turkey alifboni keltirgan; Koshg‘ariy uni «turklar yozuvi» (*kitābatu-t-turkiyya* hamda *xatṭu-t-turkiyya*) degan.

Uyg‘ur yozuvini Alisher Navoiy ham o‘shanday atagan edi. U Husayn Boyqaroning o‘g‘li Badiuzzamonga yozgan maktubida xat turlarining o‘qish uchun qulay yo qiyinligi to‘g‘risida so‘z yurita turib, uyg‘ur xatini ham eslaydi; uni *türkçä xat* deya tilga oladi. Navoiy yozadi: *Yana ul-kim, har türlüg ‘arḍadāšt-kim, yuqari bitilsä, nasxta’liq xatṭi bilä andaḡ xvānā bitilsä-kim, oqurda oqur kišigä tašvīš tegmäsä, türkçä xat (ترکجه خط) bilä xūd ašlā bitilmäsä-ki, bu bābda dayi qavle bar* (Mun.398a,23–25).

Ushbu turkcha yozuv forscha manbalarda *xatṭ-i uyyūrî*, arabcha manbalarda arabiy izofa bilan *xatṭu-l-uyyūriyya* deb ham atalgan. Masalan, Ibn Arabshoh uni ana shunday atagan (Qohira Milliy kutubxonasida saqlanayotgan 3543- ko‘rsatkichli qo‘lyozma, 186a–187a- betlar; *qarang*: Рыцанов 1976).

Ba'zi asarlarda ushbu yozuv «mo'g'ul xati» (*xattu-l-mo'yūliyya*) deb ham aytilgan (*qarang*: Содиқов 2020,257–258).

Mahmud Koshg'ariy alifbosining tizimi

Mahmud Koshg'ariyning urg'ulashicha, uyg'ur alifbosidagi harflar soni o'n sakkizta. Olim alifboda harflarning bosh shaklini ko'rsatib, tagida arab harflari bilan ularning o'qilishini (transliteratsiyasini) bergan. Uyg'ur harflarining vazifasi tagidagi ana shu izohlarga qarab tushuniladi.

U yozadi: «Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni o'n sakkizta. Turkcha yozuv (كتابة التركيه)da shular qo'llanadi. Ularning hammasini quyidagi so'zlar qamraydi: اخوك، لف، سمج، نرق، بذر، شتيا»

Ayirib ko'rsatilsa, quyidagicha bo'ladi:

ا	ب	پ	ق	ز	و	خ	ف	ا
د	ک	ی	ق	ز	و	خ	ف	ا
ل	ت	ش	ر	ج	ب	س	ن	م
ل	ت	ش	ر	ج	ب	س	ن	م

Arabchada bu harflarning tengdosh sirasi ا ب ت ث singaridir (MK.3b).

Alifbo tarkibidagi harflarning ko'pvazifalilik xususiyati haqida Mahmud Koshg'ariy alohida to'xtalgan edi. Uning ta'kidlashicha, turkiy tildagi yettita tovush uyg'ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas. Lekin ular ham yozuvda boshqa harflar bilan ifodalanaveradi; faqat ularga qo'shimcha belgilar qo'yib boriladi. Bu to'g'rida u yozadi: «Bu asosiy harflardan boshqa talaffuzdagina (yozuvda emas) ifodalanuvchi yana yettita harf [ya'ni tovush] borki, turkiy so'zlar bu harflarsiz ishlatilmaydi. Bular jarangsiz *pā* (ya'ni [p]) harfi, arabcha *jīm* harfi – arabcha *jīm* (bu lug'atda, ya'ni turkchada) kam qo'llanadi, *zā* bilan *šīn* oralig'ida talaffuz etiladigan *zā* harfi (ya'ni [ž]); arabcha *fā* (ya'ni [w]) harfi; nuqtali *ḡayn* harfi; *qāf* bilan *kāf* harflari oralig'ida talaffuz etiladigan jarangli *kāf* (ya'ni [g]), *kāfu-l-yunna* bilan *ḡayn* oralig'ida hamda *qāf* bilan *nūn* oralig'ida talaffuz etiladigan نك (ya'ni [ŋ]) harflaridir.

Bu harflarni talaffuz qilishda turklardan boshqalar qiynaladilar. Bu harflar o'sha yuqoridagi harflardek yoziladi, tepasiga nuqta qo'yilib, bir-biridan farqlanadi» (MK.3b–4a).

Koshg'ariyning ushbu ma'lumotiga ko'ra uyg'ur yozuvida quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifoda etilgani ayon bo'ladi: [k]–[g], [x]–[ɣ], [č]–[j]–[ž], [w]–[f]. Sonor [ŋ] esa yozuvda ikki harf (ن+ک) bilan berilgan.

Koshg'ariy uyg'ur alifbosidagi harflarning otini ham keltirgan: harflarning oti, ular ifodalagan tovushga *fathā* qo'shib hosil qilingan: *a*, *wa*, *xa*, *va*, *za*, *qa*, *ya*, *kā*, *da*, *ma*, *na*, *sa*, *ba*, *ča*, *ra*, *ša*, *ta*, *la*. Bu ketma-ketlikni esda saqlash uchun ular uchta-

uchtadan birlashtirilib, *awaxa*, *vazaqa*, *yakāda*, *manasa*, *bačara*, *šatala* tarzida o‘qilgan.

Mana ularning uyg‘ur xatida berilishi:

صحن حرم صحن
صحن وحن صحن

Muallifning yozishiga ko‘ra, «Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, كاشغر *Kāšgar* dan Yuqori Chingacha (الصين العليا) – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» (MK.4b).

Mahmud Koshg‘ariy uyg‘ur yozuvida unlilarning ishlatilish prinsiplari to‘g‘risida ham so‘z yuritgan. Jumladan u *kelin* so‘zining ma‘nosi va yozilishiga to‘xtala turib, yozuvning bu xususiyati to‘g‘risida shunday yozgan edi:

كَلِنْ *kelin* – «kelin». O‘rta harfi *fatha* li bu so‘zlar aslida *alif* bilan qo‘shib yozilishi kerak edi. «Tuya tovonni» ma‘nosida kelgan تَابَنْ *tapan* kabi so‘zlarda ham ikki *alif* (ya‘ni [a]) yozilishi kerak edi. Bu holda so‘z o‘zagida arabcha yozuvda bo‘lmagan ikki *alif* (ya‘ni [a]) orttirilgan bo‘ladi: صَوْمَنْ تَابَانْ; shuningdek, تَابَنْ *tüpün* kabi o‘rtasi *zamma* li so‘zlarda ikki *vāv* (ya‘ni [u]) shakli orttirib yozilishi qoidadir: صَوْمَنْ تَابُونْ *tüpün* kabi. Shuningdek, كَلِنْ *kelin* so‘zida bir *yā* [i] orttirib yoziladi: كَالِيَنْ *kaliñ* kabi. Biz ko‘rsatmagan boshqa so‘zlarda ham ahvol shu. Bu so‘zlarda orttirib, qisqartirib qo‘llash mumkin. ... Cho‘zib va qisqartib talaffuz qilish so‘zga zarar bermaydi. Lekin orttirib yozish mumkin bo‘lganiday, qisqartish ham yanglish emasdir. Balki qisqartish muvofiq (MK.102b).

Uyg‘urcha harflarning fonetik vazifalari

Endi Mahmud Koshg‘ariy keltirgan uyg‘ur alifbosidagi ayrim harflarning vazifalari to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

Uyg‘ur yozuvi oromiy alifbosi negizida yaratilgan. Shunday bo‘lsa-da, turklar bu yozuvni o‘zlashtirish chog‘ida uni o‘z tillariga moslashtirib yubordilar. Uning imlo prinsiplari tugal bir shaklda o‘ylab chiqilgan edi. Uyg‘ur alifbosidagi harflardan uchta, o‘rni bilan, unlilarni ifodalashga xizmat qilgan: <a> harfi [a] – [ä~e] unlilarini, [y] undoshini ifodalovchi <ya> harfi [i] – [i~e] ni, <va> harfi esa [u] – [ü] – [o] – [ö] unlilarini anglatadi.

Muhimi shundaki, uyg‘ur yozuvida ingichka unlilar ham farqlangan: so‘z boshida ingichka [ä] unlisi bitta *alif* bilan, yo‘g‘on [a] unlisini ifodalash uchun esa *alif* qo‘shaloq shaklda yozilgan. Shuningdek, so‘z boshi va birinchi bo‘g‘inda keluvchi [ü] va [ö] unlilari *alif yā* bilan berilgan.

Yozuvning bu xususiyati o‘romiy alifbosini (harqalay, sug‘dcha alifboni) turkchallashtirish jarayonida yuzaga kelgan edi. Chunonchi, sug‘dcha yozuvda cho‘ziq [a:] tovushi qisqa [a] dan qo‘shaloq *alif* orqali yozilishi bilan farqlangan. Turklar sug‘d xatini o‘zlashtirish chog‘ida uning ba‘zi prinsiplarini o‘z tillariga moslashtirib olganlar. Sug‘d xatida cho‘ziqlikni anglatuvchi grafik belgilar uyg‘ur

yozuvda cho‘ziq-qisqalikni emas, turkiy til uchun muhimroq bo‘lgan ingichka va yo‘g‘on unlilar, ya’ni old va orqa qator unlilarni farqlashga ishlay boshladi.

Xususan, Turfondan topilgan qadimgi budda, moniy bitiglarida so‘z boshida qo‘shaloq **𐰇** <aa-> harfi orqa qator [a] ni, oddiy **𐰆** <a-> esa old qator [ä (~e)] unlisini anglatgan. Keyinchalik orqa qator [a] tovushi uchun ham oddiy **𐰆** <a-> harfidan foydalaniladigan bo‘ldi (*qarang*: Содиқов 2020,261–262).

Endi undoshlarni anglatuvchi harflarga o‘tamiz: boshlab, sirada ikkinchi turgan **𐰪** wa harfining fonetik vazifasi to‘g‘risida. Bu harf lab-tish [w] hamda lab-lab [v] tovushlarini anglatgan. Mahmud Koshg‘ariy uning vazifasiga ishora qilib, ostiga arab alifbosidagi **و** harfini qo‘ygan (MK.3a). Buning bilan u [w] tovushini ko‘zda tutadi. Bu tovush asarda keltirilgan turkiy o‘rnaklarda **و** va **و** harflari bilan ifodalangan.

XI–XIV yuzyillarning arab yozuvli turkiy bitiglarida [v] bilan [w] boshqa-boshqa harflar bilan berilgan: fonemaning [v] variantini *vāv*, [w] tovushi esa **و** yoki **و** harflari bilan ifoda etilgan. Masalan, [w] tovushi «Devonu lug‘ati-t-turk»dagi turkiy o‘rnaklarda, «Qutadg‘u bilig»ning arab yozuvli qo‘lyozmalarida **و**// **و**, turkiy «Tafsir»da **و**, «Muqaddamatu-l-adab»ning XIII–XIV yuzyillarga tegishli deya chamalanayotgan nusxasida **و**// **و** harflari bilan ifoda etilgan (Содиқов 2020,272).

O‘rnaklar: **سَف** *sew-* «sew-» (QBQ.13a,16); **جاف** *čaw* – «xabar, dovrug‘» (QBQ.13a,7).

Keyingi davr matnlarida bu tovushlar uchun yagona harf xizmat qilgan: ikkovi *vāv* harfi bilan ifodalanadigan bo‘ldi.

Mahmud Koshg‘ariy [w] ni «*bā* (ya’ni [b] bilan *fā* (ya’ni [f]) maxrajleri orasidagi» tovush deb ta’kidlaydi (DJIT.26). Uning yozishiga qaraganda, [v] yoki [w] bilan so‘zlash dialektal xususiyat bo‘lgan. Masalan, «uning suvi bilan tutmochga rang beriladigan bir tur tikanli o‘simlik»ni ba’zi shevalarda jarangsiz [v] bilan *yava* desalar, boshqalar jarangli [w] bilan *yawa* deganlar (DJIT.331).

Shuningdek, u, ayrim hollarda, [v] bilan [w] ning yonma-yon qo‘llanishi mumkinligini ham ta’kidlaydi: *yalawač* – «payg‘ambar». Bu so‘zning *yalawač* shakli ham bor (DJIT.340).

Keltirilgan o‘rnaklar [w] hamda [v] dialektal xususiyatni farqlashi bilan birga, har ikkovi o‘zaro variant sifatida (*w~v*) ishlatilganidan ham dalolat beradi.

Endi uyg‘ur alifbosidagi to‘qqizinchi – **𐰇** <da> harfining fonetik vazifalari to‘g‘risida. Alifbodagi ushbu harf jarangli [d] hamda jarangsiz [t] undoshlarini ifoda etgan. Shuningdek, XI–XIV yuzyillarning arab yozuvli turkiy matnlarida tishora **ڤ** [δ] undoshi bilan qo‘llangan so‘zlar ham uyg‘ur yozuvli matnlarda ana shu xarf bilan yozilgan.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z alifbosida toqqizinchi harfning ostiga arabcha **ڤ** harfini qo‘yib, uning tishora [δ] tovushini ifoda etganiga ishora qiladi. Qizig‘i shundaki, alifboda **ڤ** [d] ni bildiruvchi harf ko‘rsatilmagan. Biroq, ta’kidlash kerak, «Devonu lug‘ati-t-turk»da **ڤ** [d] bilan keluvchi so‘zlar ham anchagina.

Har qaysi holda ham alifboda **ڤ** [δ] ni anglatishiga ishora etilgan to‘qqizinchi harf o‘sha davrning uyg‘ur yozuvli matnlarida [*d~δ*] vazifasini bajargani aniq.

Mahmud Koshg'ariyning ushbu harf δ [δ] tovushini anglatgan deb izohlagani bejiz emas. U alifboda d [d] ni emas, faqat δ [δ] ni ko'rsatganining sababi har ikki tovushni o'zaro variant sifatida qaraganidan bo'lsa kerak.

Uyg'ur alifbosidagi <da> harfining fonetik vazifasini aniqlashda «Hibatu-l-haqoyiq» uyg'ur yozuvli *A* nusxasining yozuv xususiyatlari qo'l keladi. Ushbu qo'lyozmada «shunday o'qilsin» degan ishora ostida arab alifbosidagi harflardan foydalanilgan. Masalan, matnda كديم *kedim* so'zidagi <d> harfining ostiga δ belgisini qo'yib, ushbu so'zni tishora [δ] undoshi bilan *keδim* shaklida o'qishga ishora qilingan (YugA.43,6). Boshqa o'rnaklar ham shunday: قۇدى *quḍi* (*quḍi*) – «quyi» (YugA.66.1), ەدگۈ *edgü* (*eδgü*) – «yaxshi» (YugA.91.2), اەدىن *adīn* (*aδīn*) – «begona» (YugA.113.1).

Ba'zi o'rinda uyg'ur yozuvli matndagi <z> harfining ostiga ham δ belgisi qo'yib ketilgan. Shunday ekan, endi bu harfni ham [δ] deb o'qish kerak: بوزۇن *bozun* (*boδun*) – «xalq» (YugA.102,2), $\text{قازۇ$ *qazyu* (*qaδyu*) – «qayg'u, alam» (YugA.103,2) singari.

«Hibatu-l-haqoyiq»ning *B* nusxasida [δ] tovushini hatto <t> harfi bilan ham berilgan; bu so'zdagi <t> ni ham [δ] deb o'qisa bo'ladi: كەت *ket* (*keδ*) – «juda» (YugB.39,5).

«Hibatu-l-haqoyiq»ning arab yozuvli *B* va *C* qo'lyozmalarida δ harfli so'zlar yo'q; o'rnida *dāl* yoki *yā* harflari ishlatilgan. Muhimi shundaki, *B* va *C* qo'lyozmalarida [d] yoki [y] bilan ishlatilgan so'zlar asarning arab yozuvli eng eski *H* qo'lyozmasida [δ] bilan keladi; bu tovush matnda δ harfi bilan ifodalangan: ەدگۈ *edgü* – «ezgu» (YugH.24b,6); ەدە *eḍi* – «ega; xudo» (YugH.15a,8); ايد *iḍ* – «yubor-» (YugH.11a,3); قۇدى *quḍi* – «quyi» (YugH.14a,5) va b.

Muhim bir dalilga e'tibor qarataylik. «Qutadg'u bilig»ning arab yozuvli Namangan nusxasida [δ] tovush maxsus harf bilan berilgan: ەدگۈ *edgü* – «ezgu, yaxshi» (QBN.15b,2); بوزۇن *boδun* – «xalq» (QBN.14a,14); اۈد *öδ* – «vaqt» (QBN.20b,5); اۈد *uδ* – «ho'kiz» (QBN.42a,4). Asarning uygur yozuvli Hirot nusxasida bu so'zlar <d> harfi bilan yozilgan. Shu o'rinda Namangan nusxasining yozuv xususiyatlarini e'tiborda tutadigan bo'lsak, uyg'ur yozuvli matndagi <d> harfi tishora [δ] tovushini ifoda etgani ayon bo'ladi: *edgu* (*eδgü*) – «ezgu» (QBH.9b,21); *keḍin* (*keδin*) – «keyin» (QBH.29a,19); *quḍi* (*quḍi*) – «quyi» (QBH.8a,32); *adaγ* (*aδaγ*) – «oyoq» (QBH.12a,5); *Uδ* (*Uδ*) – yulduzning oti (QBH.8b,9).

Shuning singari, «Hibatu-l-haqoyiq»ning uyg'ur yozuvli *A* nusxasida *kedgülik* (ya'ni «kiygulik») so'zining ostiga ham δ harfi qo'yib ketilgan: *kedgülik* (o'qilishi: *keδgülik*) (YugA.44.4). O'rnaklardan anglashiladiki, uyg'ur alifbosidagi <d> harfi [d] va [t] tovushlaridan tashqari, tishora [δ] tovushini ham ifoda etgan.

Turkiy yozma yodgorliklar tilida sirg'aluvchi [ž] tovushi ham qo'llangan. Mahmud Koshg'ariy buni murakkab artikulyatsiyaga ega bo'lgan («ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan») tovush deya ta'riflaydi (DJIT.160).

Uyg'ur yozuvli qadimgi Turfon matnlarida sirg'aluvchini [ž] tovushi <z> harfining ostiga ikki nuqta qo'yib ifoda etilgan (ʼ). Masalan, «Syuan-tsan

kechmishi» asarida: **اڙون** *ažun* – «dunyo» (CIQ.V.71,4), **يٰزىك** *üzik* – «harf, yozuv» (CIQ.V.17,23).

Sirg'aluvchi [ž] tovushi arab xatida ژ harfi bilan ifoda etilgan. Masalan: *ažun* (اڙون) – dunyo (QBN.16b,7); *täžiklär* (تاڭيكلار) – forslar (QBN.17a,11); *eriž* (اريڭ) – farog'at (QBN.22b,1) so'zlaridagi singari.

Mahmud Koshg'ariy o'z asarida quyidagi so'zlarni sirg'aluvchi ژ [ž] bilan keltirgan: *ažun* (اڙون) – «dunyo» (DJIT.43); *ayuz* (اغڭ) – «og'iz, og'iz suti» (DJIT.36); *aržu* (ارڭو) – shoqol, chiyabo'ri deyilgan yirtqich bir hayvon (DJIT.64); *užma* (اوڭما) – tut daraxti (DJIT.65); *täžik* (تاڭيک) – «fors» (156); *bužin* (بڭن) – bir turli o't, o'simlik (DJIT.160).

«Qutadg'u bilig»ning arab yozuvli qo'lyozmalarida ژ harfi bilan ifodalangan [ž] tovushi asarning uyg'ur yozuvli Hirot qo'lyozmasida <č> harfi bilan ifida etilgan. Asarning arab yozuvidagi nusxalari nazarda tutilsa, bu so'zdagi <č> harfi sirg'aluvchi [ž] ni anglatayotgani ayon bo'ladi: *ačun* (*ažun*) (QBH.7a,17) [arab yozuvli nusxalarda: اڭون (QBN.9b,10)].

Qadimgi Turfon bitiglarida ikki nuqtali <z> bilan yozilgan *ažun* so'zi «Hibatu-l-haqoyiq»ning uyg'ur yozuvli nusxalarida <č> harfi bilan **اچون** *ačun* shaklida yozilgan (YugA.14,6; 15,4).

«Hibatu-l-haqoyiq»ning uyg'ur xatida yozilib, o'qilishi ostida arab harflari bilan keltirilgan B nusxasida qiziq bir xususiyatni kuzatamiz. Unda uyg'ur yozuvli matndagi *ačun* so'zi ostidagi arab yozuvli matnda bir o'rinda اڭون *ažun* (YugB.19,2; 22,4), boshqa bir yerda esa اچون *ačun* deb izohlangan (YugB.23,4; 47,7).

Asarning arab yozuvli C nusxasida ham ushbu so'z bir yerda ژ bilan *ažun* yozilsa (YugC.18,2; 21,4), boshqa bir yerda ج bilan *ačun* yozilgan (YugC.8,1). Anglashiladiki, bu so'z asarda *ažun* ~ *ačun* shakllarida qo'llangan ekan. Shunga ko'ra, asarning uyg'ur yozuvli nusxalarida **ا** <č> harfi sirg'aluvchi [ž], o'rni bilan, jarangsiz [č] tovushini ifoda etgani ayon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Mahmud Koshg'ariy keltirgan o'n sakkiz harfli alifbo (MK.3b) asosida tizimlashtirilsa, harflarning vazifalari quyidagicha ekani ayon bo'ladi:

- <a> harfi – [a], [ä ~ e]; arabchadan o'zlashgan so'zlardagi [h], [ħ] larni;
- <w> harfi – [v~w], arabcha va forschadan o'zlashgan so'zlardagi [f] ni;
- ⤵ <x> harfi – [x], [ɣ], o'zlashgan so'zlardagi [h], [ħ] larni;
- ⦿ <v> harfi – [o], [ö], [u], [ü] larni;
- ⚡ <z> harfi – [z], [s], [ž] larni;
- ⤵ <q> harfi – [q], [ɣ], arabchadan o'zlashgan so'zlardagi [h], [ħ] larni;
- ⚡ <y> harfi – [y]; [i], [i], [~e] larni;
- ⤵ <k> harfi – [k], [g] larni;
- ⚡ <d> harfi – [d~δ], [t] larni;
- <m> harfi – [m] ni;
- ⚡ <n> harfi – [n] ni;
- ⤵ <s> harfi – [s], [z], Turfon matnlarida ba'zan [ž] ni;
- ⦿ harfi – [b], [p] larni;

- Ⓕ <č> harfi – [č], [j], [ž] larni;
- Ⓖ <r> harfi – [r] ni;
- Ⓗ <š> harfi – [š] ni;
- Ⓓ <t> harfi – [t], [d~δ] larni;
- Ⓖ <l> harfi – [l] fonemasini ifoda etadi.

Tuganchi

Mahmud Koshg‘ariy keltirgan uyg‘ur alifbosi va yozuv haqidagi ma‘lumotlari yozuv tarixi, uning o‘ziga xos xususiyati, eski turkiy tilning, xususan, qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining fonetik tizimi, harf va tovush munosabatlarini o‘rganishda o‘ta ahamiyatlidir. Koshg‘ariy alifbosi o‘tmishdan qolgan grammatik asarlar va tarix kitoblarida keltirilgan uyg‘ur alifbolarining eng mukammali bo‘lib, olim unga eski turkiy tilining bilimdoni, kuchli fonetisti sifatida yondashgan.

Uyg‘ur alifbosi ixcham bir ko‘rinishda tuzilgan bo‘lib, undagi harflarning aytarli bari polifonik xususiyatga ega edi. Turkiy xalqlar o‘tmishda foydalangan alifbolarning eng ixchami ham ayni alifbodir. Uning imlo prinsiplari puxta ichlab chiqilgan. O‘tmish yozuv amaliyotining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yozuvning qulay yo o‘ng‘aysizligi, tilning fonetik-fonologik tizimiga qay daraja javob berganligi harflarning oz-ko‘pligida emas, balki imlo qoidalarining qanday ishlab chiqilganiga bog‘liq ekan.

Uyg‘ur xati o‘zining ixcham alifbo tizimi, imlo prinsiplarining puxta ishlangani, paleografik imkoniyatlari bilan turkiy tilning fonetik xususiyati, kitobat sa‘ati talablariga to‘la javob berib, yuzyillar osha ishlatilib keldi.

«DEVONU LUG‘ATI-T-TURK»DA KELITIRILGAN YER YUZI XARITASINING O‘QILISHI

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asarida Yer yuzi xaritasi berilgan (MK.11b–12a; yoki ДЛТ.192- *betdan keyingi rangli illyustratsiyaga qarang*). Xarita qadimgi turklarning yerlashuvi, o‘lka va shaharlari, geografik sharoiti to‘g‘risidagi qarashlarimizni boyitadi; istoriografiyaning kemtiklarini to‘ldiradi, xato yondashuvlarni izga soladi.

Ushbu xarita o‘tgan yuzyilning 30- yillaridan buyon bilim kishilari qiziqishini o‘ziga tortib kelmoqda. Xarita bo‘yicha A.N. Bernshtam, I.I. Umnyakov, A. German maqolalar yozdi. «Islom ensiklopediyasi»da ham Mahmud Koshg‘ariy xaritasining sharhi berilgan. O‘zbek olimi H. Hasanov Mahmud Koshg‘ariyga bag‘ishlangan risolasida xarita to‘g‘risida keng ma‘lumot beradi (Хасанов 1963). Men ham o‘z ishlarimda xarita to‘g‘risida ma‘lumot berib, uning o‘qilishini keltirganman (Содиқов 2018,29–39; ТСД.765–776).

Kezi kelganda, ushbu xaritani Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi tuzganmi? yoki o‘sha davrdagi tayyor xaritani olib, asarga kiritib qo‘ya qolganmi? degan so‘roq ham tug‘ilishi tabiiy. Bu borada xaritani Koshg‘ariyning o‘zi tuzganligiga shubha bildirmasa ham bo‘ladi. Boisi, u turk tabaqa va qabilalari haqida xabar berar ekan,

«Bu qabilalarning turar joylarini bu doirada ko'rsardim» deb yozib qo'yibdi (DJIT.24). Boshqa bir o'rinda u turk shaharlari to'g'risida xabar bera turib, «Bu shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim» deb yozgan (DJIT.25). Bulardan tashqari, asar davomida keltirilgan geografik ma'lumotlar xaritada ko'rsatilganlar bilan mos tushadi.

Mahmud Koshg'ariy o'z xaritasini «doira» deb atagan. Chindan-da, uning xaritasi doira shaklida bo'lib, hozirgi xaritalardagi sharqiy yarimsharga to'g'ri keladi.

Xaritaning hozirgilardan farqli jihati Yer qutblarining joylashuvida. Doiraning to'rt yog'iga qutblarning otlari yozib qoyilibdi: uning yuqori tomoni – Sharq (*aš-Šarq*), ostki tomoni – G'arb (*al-Ġarb*), o'ng tomoni – Janub (*al-Janūb*), so'l tomoni – Shimol (*aš-Šimāl*).

Xaritada okean, dengiz va ko'llar to'q qoramtir ko'kda; daryolar xira och ko'k, g'uborli rangda; tog'lar enli och qizil chiziqlar bilan; cho'llar sarg'ish yashil, xoldor enli chiziqlarda; shaharlar va ayrim viloyatlar sariq doirachalar bilan ko'rsatilgan. Mamlakat chegaralari esa qizgish ingichka chiziqlarda ko'rsatilgan. Ushbu shartli belgilarning ma'nosi xaritaning to'rt burchagiga qizgish rangli siyoh bilan yozib qo'yilibdi. Mana ularning o'qilishi: *al-yubru-l-anhār* («g'uborli (rang) daryolardir»); *al-xudru-l-bihār* («yashil (rang) dengizlardir»); *aš-šuffuru-l-rimāl* («sariq (rang) qumlardir»); *al-xumru-l-jibāl* («qizil (rang) tog'lardir»).

Muhimi, xaritada e'tibor ko'proq turk shahar va o'lkalariga qaratilgan. Tevarakdagi o'lkalar nisbatan umumiy masshabda bo'lib, turk ellarining chegaralari, ularning qaysi tomonida qanday mamlakatlar joylashganini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuning singari o'ziga yarasha belgilari bilan u o'tmishda yaratilgan boshqa xaritalardan ham ajralib turadi. Albatta, unda sharqiy yarimsharning tuzilishi: quruqliq, dengiz va daryolarning ko'rinishi zamonaviy xaritalardagidek emas. Biroq, Mahmud Koshg'ariy xaritasi mamlakat va shaharlar, dengiz va daryolar, tog'u cho'llar o'rnini aniq bera olganligi, geografik otlarning o'sha davr kartografiyasi talablari asosida ekanligi bilan muhim. Ushbu xarita ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo, qolaversa, qadimgi dunyo kartografiyasining ishonchli manbalaridandir.

Xaritada doirachalar bilan, asosan, turk shahar va o'lkalari keltiriladi. Berilgan doirachalarning umumiy soni 72 ta. Biroq, ularning bari ham yozuvli emas. Aftidan, uni ko'chirayotgan kotib o'zi uchun kerakli shaharlarni belgilab, muhim bo'lmaganlarini yozib ham qo'ymagan chog'i.

Xaritaning muhim yutuqlaridan yana biri, unda mamlakat va o'lkalar – *maskan*, *bilād*, *arḍ*, *arāz*, *hudud*, *balda*; tog'lar – *jabal*; dashtlar – *fayāf*; daryolar – *vādī*; dengizlar – *bahr* so'zi bilan qayd etilgan. Cho'lli o'lkalarga esa *raml* deb yozib qo'yilibdi.

Yana bir jihati, ushbu xarita «Devonu lug'ati-t-turk»da berilgan geografik ma'lumotlarni o'zida yig'iq bir ko'rinishda jamlaydi. Asar davomida xaritada aks etgan o'lka, mamlakat va shaharlar, tog' va suvliklarga keng ta'rif beriladi. Ularning joylashuv yeri, iqlimi, tabiiy holati, tarixi, ba'zan etimologiyasi haqidagi ma'lumotni

ham asardan o'qiymiz. Xaritada esa ana shu ma'lumotlarning bari umumlashtirilib, yaxlit tizimga tushirilgan.

E'tiborlisi, «Devonu lug'ati-t-turk»da muallif turkiy qavmlarning yerlashuv o'zni to'g'risida aniq ma'lumot keltirgan. Uning yozishicha, turklar aslida yigirma qabiladir («qabila» atamasi ostida qavmlar ko'zda tutilgan). Har bir qabilaning son-sanoqsiz urug'lari bor. Asarda Rumdan kun chiqargacha bo'lgan hududlardagi turk qavmlari birma-bir sanab o'tilgan. Muallif bu qavmlarning yurtlari «doira»da (ya'ni xaritada) ham ko'rsatilganini ta'kidlaydi.

Asarda ta'kidlanishicha, Rumga yaqin birinchi qabila *pečänäk*; so'ng *qiwčaq*, so'ng *oyuz*, so'ng *yämäk*, so'ng *başyirt*, so'ng *basmil*, so'ng *qay*, so'ng *yabaqu*, so'ng *tatar*, so'ng *qirqiz* keladi. *Qirqiz* lar *Šin* yaqinidadir. Bu qabilalarning yeri *Rūm* dan kun chiqargacha cho'zilgan (DJIT.24). «Devonu lug'ati-t-turk»ka kiritilgan xaritada bu yurtlar g'arbdan sharqqa sari joylashtirib chiqilgan.

Muallif yana davom etadi: So'ng *čigil*, so'ng *tuxsi*, so'ng *yayma*, so'ng *iyraq*, so'ng *čaruq*, so'ng *čumul*, so'ng *uyyur*, so'ng *tañut*, so'ng *xitay*. *Xitay* – *Šin* dir. So'ngra *tawyač*; bu *Māšīn* dir (DJIT.24). Xaritada bu qabilalarning yurtlari janub bilan shimol o'rtasida berilgan.

Turk ellarining chegaralari to'g'risida ham Mahmud Koshg'ariyning o'z qarashlari bor. Chunonchi, u *Qaz* so'ziga izoh berar ekan, yozadi:

Qaz – *Afrāsiyāb* qizining oti. *Qazvin* shahrini u qurgan. Bu so'zning asli *qaz oyuni* – «g'oz o'ynaladigan joy» demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar *Qazvin* ni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, *Qum* shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki *qum* turkcha so'zdir. *Afrāsiyāb* ning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk o'lkalari *Marvaš-šāhijān* dan boshlanishini so'zlaydilar. Chunki *Qaz* ning otasi *Toña Alp er* – *Afrāsiyāb* dir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin *Marv* ni bino qilgan.

Ba'zilar butun *Māvarāu-n-nahr* ni turk o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U *Yenkānd* dan boshlanadi. Uning yana bir oti *Dizrutin* dir. Ya'ni sariqlig'iga ishora qilib, «Mis shahri» deyishgan. Bu *Buxārā* ga yaqindir. Bu yerda *Afrāsiyāb* ning qizi – *Qaz* ning eri *Siyavuš* o'ldirilgan. Ma'jusiyyotashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, *Siyavuš* o'lgan joy tevaragida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonliq qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar. Ularning odati shunday.

Butun *Māvarāu-n-nahr*, *Yenkānd* dan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, *Samarqand* aslida *Semizkānd*, *Taškānd*, bu – *Šaš* dir, *Özkānd*, *Tunkānd* otlarining hammasi turkchadir; *kānd* turkcha «shahar» demakdir. Ular bu shaharlarni qurishgan va shunday otlar bilan atashgan. Hozircha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalarining chegarasi *Ābisgün* dengizi bilan o'ralgan. *Rūm* o'lkasidan va *Özjānd* dan *Šin* gacha cho'ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir (DJIT.374).

Mahmud Koshg'ariyning «Butun *Māvarāu-n-nahr*, *Yenkānd* dan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, *Samarqand* aslida *Semizkānd*, *Taškānd*, bu – *Šaš* dir, *Özkānd*, *Tunkānd* otlarining hammasi turkchadir; *kānd* turkcha «shahar» demakdir. Ular bu shaharlarni qurishgan va

shunday otlar bilan atashgan. Hozircha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan» degan ma'lumotlari Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tarafidan bunyod etilgani, joy otlari boshlab turkiyda bo'lib, keyinchalik esa forscha atab ketilganidan dalolat beradi (*Yinčü ögüz – Sirdaryo; Keš (~Kāš) – Shahrisabz* singari otlarning yuzaga kelishi bunga yorqin misoldir).

Xaritada o'ika va ellarning joylashuv tartibi shunday:

O'rtaliqda turkiy ellar va o'lkalar. Xaritaning qoq o'rtasiga Balasag'un va Taraz oralig'idagi yerlar to'g'ri keladi. Bular tog'li vodiylar, Issiqko'l tevaraklaridir.

O'rtaliqdan shimoli-g'arv tomonda *Šaš, Xvārazm, Tabaristān, Āḍarbādkān*, undan o'tib *Pečānāk* yurtiga boriladi.

G'arbi-janubiy tomonda *Samarqand, Xojand, Maryīnān, Kāsān*.

Xaritada *Maryīnān* (Marg'ilon) bilan *Kāšyar* o'rtasida ikki shahar berilgan. Biroq, ularning yozuvi o'ta zich, o'qish qiyin. Birini *Özjand* deb o'qish mumkin, ikkinchisi aniqsizligicha qolmoqda.

Janubda *Kāšyar, Yārkānd*, ular ortida tog'lar osha *Qašmir* ga o'tiladi.

Janubi-sharqda *Xotan, Uč, Barman, Küčä*.

Sharqda Uyg'ur davlati (*Bilādu Uyyur*). U yerda *Bešbaliq, Čanbaliq, Qoču, Silmi, Xatunsini* shaharlari joylashgan.

İspījab, Tarāz, Nazal, Yawīnč, İki ögüz, Kemi Tarāz shaharlari g'arbdan sharqqa sari bir chiziqli joylashgan.

Mahmud Koshg'ariy o'z xaritasida *Kemi Talas* ni *Kemi Tīrāz* deb bergan. Bu o'rinda yanglishayotgani yo'q. Sababi, u asarda *Talas* to'g'risida xabar berar ekan, yozadi: *Talas – Tīrāz* ismi bilan mashhur bo'lgan shahar. U ikkita: biri «ulug'» ma'nosidagi *Uluγ Tīrāz*, ikkinchisi musulmonlar hududidagi *Kemi Tīrāz* dir (DJIT.147).

O'rtaliqdan shimolga yurilsa, O'g'uz davlati (*Bilādu-l-Ğuziya*)dan o'tib, Kaspiyga chiqiladi.

Ötükān, Čumul yurtlari hamda *Yāmāk, Bašqirt, Basmīl* dashtlari shimoli-sharqda.

Turkiy ellar va o'lkalarni tevarakda turli mamlakatlar o'rab turadi.

Janubi-sharqiy tomonda cho'llar va yarim doira shaklida tog'lar aks etgan. O'rtada *Saddi ḡulqarnayn* (Zulqarnayn devori) degan yozuv bor. Tog'lar o'rqasida Ya'juj va Ma'juj yerlari (*Arḡu Yājūj va Mājūj*). Mahmud Koshg'ariy o'z asarida bu yurtning juda uzoqda ekanini ta'kidlab, «*yājūj* va *mājūj* lar uzoqda turgani, orada *Māšīn* yaqinidagi dengiz to'sqinlik qilishi sababli ularning tillari ham ma'lum emas» deb yozgan edi (DJIT.25).

Janubda Hind dengizi, Sarandib yurti va Sarandib tog'lari, Hind va Sind mamlakati, G'azna, uning ortida Sujiston, Kirmon, Fors, Xuziston, Yaman joylashgan.

Janubi-g'arbiy chekkada Markaziy Afrika (Barbar, Zutt, Xabasha, Zanj).

Garb tomonda ham chollar va uning orqasida Xuroson, Iroq, Hijoz, Qayruvon va boshqalar. Eng chekkada Mag'rib va Andalus (Ispaniya). Bir tomonda Kurod, Shom, Misr va Aliskandariya.

Shimol tomonda Kaspiy dengizi (*Bahri Ābiskun*). Dengizning gʻarbi-shimolida Rus, Saqalaba (slavyanlar va Sharqiy Yevropa) va Varang (Boltiqboʻyi va Skandinaviya) berilgan. Soʻnggi mamlakat otini Mahmud Koshgʻariy devonda *Uraṇ* ~ *Varaṇ* shakllarida keltiradi. Bu joyning oʻrni va oti haqida u yozadi: «*Uraṇ* – *Rūm* viloyati yaqinida, shimoliy chegarasidagi bir joy oti. Bu soʻzning *Varaṇ* tarzida oʻqilishi yaxshiroq» (DJIT.67).

Pechanaklar yurti xaritaning shimoli-gʻarbiy chekkasida. Kaspiyning gʻarb tomonida – Tabariston va Pechanak dashtlari oraligʻida *Darbandi Xazarān* (~*Xuzarān*?).

Kaspiyning shimolida qivchaq, suvar, bulgʻar yurtlari. Itil (Volga) daryosi ham shu yerda.

Kaspiyning yuqori tomonida qivchaq bilan tatar dashtlari oʻrtasida *Baldata-s-saqāli mahdiya va-l-yuziya* («Qalin oʻrmonlar va Gʻuziya mamlakatlari») degan yozuv bor.

Xaritaning bir chetida, Yamar suvining yuqorirogʻida *Baldata-l-nisā* (Xotinlar mamlakati) berilgan.

Xaritaning sharqiy chekkasida *Čawu*, dengizlar ortida *Čabarqa* (Yaponiya), soʻng *Māšīn* (Mochin).

Mahmud Koshgʻariy *tawyač* soʻzining bir qancha maʼnosini keltirgan. Birinchisi:

Tawyač – *Māšīn* mamlakatining oti. Bu mamlakat *Šīn* dan toʻrt oylik yoʻl uzoqliqda. *Šīn* (Chin) aslida uchta: birinchisi, Yuqori *Šīn* – bu Sharqda boʻlib, bunga *Tawyač* deyiladi. Ikkinchisi, Oʻrta *Šīn*, buni *Xīṭay* / *Xaṭay* deyiladi. Uchinchisi, Quyi *Šīn*, buni *Barxan* deyiladi va u *Kāšyar* dadir. Lekin hozir *Tawyač* ni *Māšīn*, *Xīṭay* / *Xaṭay* ni *Šīn* deb yuritiladi (DJIT.180–181).

Bu soʻz «uygʻurlar»ni ham anglatgan. Mahmud Koshgʻariy soʻzning ushbu maʼnosi toʻgʻrisida shunday yozadi: *tawyač* – *uyyur*. U *tat* dir. Ular *Šīn*, yaʼni *Tawyač* da yashaydilar. Har bir eski va katta narsaga *tawyač eđi* deyidilar... Shohlarning *tawyačxan* deyilishi ham shundandir, «katta yerli, eski xon» degan maʼnodadir (DJIT.181).

Bitiglarda bu soʻz qoʻshaloq *tat tawyač* shaklida ham ishlatilgan. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha: *tat tawyač* – «forsiy va turk» demakdir. Birinchi soʻz *tat* – «fors», ikkinchi soʻz *tawyač* – «turk» oʻrnida qoʻllanadi (DJIT.181).

Mahmud Koshgʻariy oʻz asarida *Čabarqa* ning juda uzoqda ekanligini taʼkidlab, «*čabarqa* liklarning uzoqda turishi, *Māšīn* bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari maʼlum emas» deb yozgan edi (DJIT.25).

Xaritadagi ayrim qayd va izohlar toʻgʻrisida. Xaritada geografik atamalardan tashqari, ayrim qaydlar ham yozib qoʻyilgan. Chunonchi, Uygʻur davlati tepasida qumliklar berilgan va uning yoniga *Fayāfi va rimālun yayuru-l-māʼu fiyhā* («Suv singib ketadigan dasht va qumliklar») deb yozib qoʻyilibdi. Bu joylar Labnoʻr tevaragiga toʻgʻri keladi.

Devonda bu oʻlkadagi suvlar haqida ham maʼlumot berilgan. Chunonchi, Mahmud Koshgʻariy *Usmī tarīm* daryosi toʻgʻrisida: «*Usmī tarīm* – Islom shaharlaridan uygʻurlargacha oqadigan katta bir suv. U yerlarda (uygʻurlarga

yetgach) qumga singib ketadi» deb yozadi. Yoki *Tarim* soʻzini izohlab, shunday taʼkidlaydi: «*Tarim – Uyyur* chegarasida *Küçä* yaqinidagi bir joy otidirki, uni *Usmī tarim* deyilar. U yerda oqadigan suv ham shu soʻz bilan ataladi» (DJIT.159). Shu oʻrinda muallif ushbu soʻzning lugʻaviy maʼnosini ham keltirgan. Uningcha, «koʻl va qumliklarga quyiladigan suvlarning qirgʻoqlari» *tarim* atalgan (DJIT.159).

Xaritaning janubiy chekkasida *Lā yaskunu fiyha-l-xalqu liyalabati-l-barārati ʼalayha* («Harorat gʻalaba qilganidan u yerda odamzot yashamaydi») deb yozilgan. Bu izoh ostida Sahro-i Kabir koʻzda tutilmoqda.

Shimoliy chekkada: *Lā yaskunu fiyha ahadun min-al-xalqi liyalabati-l-burudati ʼalayha* («Sovuq gʻalaba qilganidan u yerda odamzot yashamaydi») deb yozilgan. Bu yerlar Yevropaning shimoli va Arktikadir.

Shimoli-sharqda: *Yuqalu fi hazihi-l-fayāfi yaskunu-n-nasnāsu* («Aytadilarki, bu dashtlarda nosnoslar (yovvoyi odamlar) yashaydi») va uning ostiga *Mavazi ʼu li-l-vuhuši* («Vahshiy hayvonlar joyi») deb yozilgan.

Uygʻur davlatining shimoliy tomonida Beshbaliq va Ulviya yurti oʻrtasida *Unāsun kaširatun min-at-türki* («Bu yerdagi xalqlarning koʻpi turklar») deb yozib qoʻyilibdi.

Xaritada Hind dengizi ham berilgan. Undan quyiroqda *Sarandīb* hamda *Jabalu Sarandīb* («Sarandib togʻlari») bor. Dengiz va bu yerlarning oʻrtasiga *Mahbiṭu Ādam ʼalayhi-s-salām* («Odam alayhi-s-salom qadami yetgan joy») deb yozib qoʻyilibdi. Muallifning bu taʼkidi Odam alayhi-s-salomning ana shu yerga tushganligi toʻgʻrisidagi diniy qarashlarni boyitadi, unga aniqlik kiritadi.

Xaritada koʻrsatilishicha, turk davlatlarining gʻarbiy, sharqi-shimoliy, janubi-sharqiy chegaralari qumliklardan iborat. Bu choʻllar yashil xoldor rangdagi chiziqlarda berilgan va ularning yoniga *raml*, *ar-raml* («qum») deb yozib qoʻyilgan.

Xaritada qayd etilgan joy otlari quyidagilardir:

(1) shahar va viloyatlar:

Šaš (hozirgi Toshkent)

Samarqand

Xojand

Maryinān (Margʻilon)

Kāsān

Özjand

Kāšyar

Yarkānd

Xotan

Jurjan

Čawu

Uč

Barman

Küçä

Balasaṭun

Kūšān

Barsqan

Qoçınarbaşı
İspijab (Sayram)
Ṭarāz
Nazal
Yawinč
İki ögüz
Kemi Ṭirāz [ya'ni *Kemi Talas*]
Bešbaliq
Čanbaliq
Qoču
Silmi
Xatunsini
Ötükän
Šanču
Xvārazm (Xorazm)
Manqışlay
Bulyar
Suvar
Jand
Pečänäk
Darbandi Xazarān (Xazorlar devori)
Rūs (Rus)
Šaqaliba (Slavyan)
Almaj (?)
Varaṇ (Boltiqbo'yi)
Qašmir (Kashmir)
Tabaristān
Ġazna
Sarandīb (Seylon)
Māšīn (Mochin)
Čabarqa (Yaponiya)
Aliskandariyya
 (2) *maskan* so'zi bilan berilgan joy otlari:
Maskanu Qiwčaq (Qivchaq maskani)
Maskanu Čumul (Chumul maskani)
Maskanu Qay (Qay maskani)
 (3) *fayāf* (dashtlar) so'zi bilan berilgan joy otlari:
Fayāfi Tatar (Tatar dashtlari)
Fayāfi Yämäk (Yamak dashtlari)
Fayāfi Bašqirt (Bashqirt dashtlari)
Fayāfi Basmil (Basmil dashtlari)
 (4) *bilād* (davlat) so'zi bilan berilgan joy otlari:
Bilādu Uyyur (Uyg'ur davlati)
Bilādu-l-yuziya (O'g'uziya davlati)

Bilādu Sujistān (Sujiston davlati)

Bilādu Kirmān (Kirmon davlati)

Bilādu Fārs (Fors davlati)

Bilād Xūzistān (Xuziston davlati)

Bilādu Hind (Hind davlati)

Bilādu Sind (Sind davlati)

Bilādu Barbar (Barbar davlati)

Bilādu-z-Zuṭṭ (Zut davlati)

Bilādu-z-Zanj (Zanj davlati)

Bilādu-l-Xabaša (Xabash davlati)

(5) *arḍ* (yer) soʻzi bilan berilgan joy otlari:

Arḍu Āḍarbādkān (Ozarbayjon yeri)

Arḍu Xurāsān (Xuroson yeri)

Arḍu-l-ʾIrāqayn (Ikki Iroq mamlakati)

Arḍu-l-Hijāz (Hijoz yeri)

Arḍu-l-Yaman (Yaman yeri)

Arḍu-l-Ukrād (Kurd yeri)

Arḍu-š-Šām (Shom yeri, Suriya)

Arḍu-l-Dayālama (Dayolama yeri)

Arḍu Yājūj va Mājūj (Uaʼjuj va Maʼjuj yeri)

Arḍu Kalim (Kalim yeri)

Arḍu-l-Qayrivān va ḡayrhā (Tunis va boshqa yerlar)

(6) *balda* (mamlakat) soʻzi bilan berilgan joy otlari:

Baldata-l-nisā (Xotinlar mamlakati)

Baldata-l-ʾUlviya (Ulviya mamlakati)

Baldata-s-saqāli mahdiya va-l-yuziya (Qalin oʻrmonlar va Gʻuziya mamlakatlari)

(7) *arāz* soʻzi bilan berilgan joy oti:

Arāzi-l-Mayāriba va hiya Andalus (Magrib va Ispaniya)

(8) *hudud* soʻzi bilan berilgan joy oti:

Hududu Misr (Misr hududi)

(9) *jabal* (togʻ) soʻzi bilan berilgan otlar:

Jabalu Qaračuq (Qarachuq togʻi)

Jabalu Sarandīb (Sarandib togʻi)

Xaritada berilgan dengiz, koʻl va daryolar. Doiraning tevaragi toʻq qoramtir koʻkda ekanligi quruqliq toʻrt yoqdan suv bilan oʻralgan degan tasavvurni uygʻotadi.

Xaritada Kaspiy dengizi ham berilgan. U *Bahri Ābiskun* deb atalgan.

Xaritada daryolar koʻp, biroq hammasining ham oti yozilgan emas. Unda ayrim daryolarning oti qayd etilgan, xolos.

Xaritada togʻlar orasidan chiqib, dasht yoqalab *Bahri Ābiskun* ga borib quyiluvchi bir daryo eʼtiborni oʻziga tortadi. Uning yonida *Jayhun* degan yozuvi bor. Bu hozirgi Amudaryodir. Xaritada Sirdaryo ham berilgan. U ham *Jayhun* ga parallel oqib, oʻsha dengizga quyiladi. Biroq xaritada uning oti yozilmagan.

Janubdagi *Bilādu Hind* (Hindiston) tarafda ham bir daryo joylashgan. U ham tog‘liqlardan boshlanib, boshqa bir taraf – janubdagi dengiz sari oqadi. Uning yoniga esa *Sayhun* deb yozib qo‘yilibdi. Lekin bu Sirdaryo emas, Mahmud Koshg‘ariy Hind daryosini ana shunday atagan. O‘tmishda bu daryoni ham ana shunday ataganlar chog‘i.

Xaritada ayrim daryolar *vādī* so‘zi bilan berilgan: masalan, *Vādī Yamar* (Yamar daryosi) singari. Asarda berilgan turkiy matnda *vādī* o‘rnida *suw* so‘zi ishlatilgan: *Ertiš suwī*, *Yamar suwī*, *Etil suwī* singari. Bu daryolarning har biri to‘g‘risida devonda ma‘lumot ham bor. Qadimgi turkiy tilda «daryo»ni *ögüz* ham deyilgan. Masalan, Kul tigin bitigida Sirdaryoni *Yinčü ögüz* atalgan (K.39). Bu atama «Inju daryo» degan ma‘noni anglatadi.

Xaritada oti berilgan daryolardan biri *Vādī Ertiš* (Ertish daryosi)dir. Asarda bu daryo haqida Mahmud Koshg‘ariy yozadi: *Ertiš – Yämāk* dashtida oqadigan suv (daryo)ning oti. Bir necha tarmoq (ariq)lardan iborat bo‘lgan shu suv (daryo) o‘sha yer (qir)dagi bir ko‘lga quyiladi. Uni *Ertiš suwī* deyiladi. Bu so‘z suvdan o‘tishda «kim tez o‘tar» ma‘nosida qo‘llanadigan *ertiš* so‘zidan olingan (DJIT.52).

Kul tigin bitigida bu daryo *Ertiš ögüz*, ya‘ni «Ertish daryosi» deb atalgan (K.37).

Xaritadagi boshqa bir daryo – *Vādī İla* (Ila daryosi). Bu suv to‘g‘risida Koshg‘ariy asarda shunday yozadi: *İla* – bir daryoning oti. U turk shaharlarining *Jayhūn* idir. Uning ikki qirg‘og‘ida ikki turk qavmi: yag‘ma, tuxsi va ba‘zi chigillar yashaydilar (DJIT.50).

Yana biri – *Vādī Etil* (Itil daryosi). Itil haqida muallif yozadi: «*Etil – Qiwčaq* ellarida bir daryoning oti. U *Bulyar* dengiziga quyiladi. Uning *Rūs* yerlariga quyiladigan bir tarmog‘i ham bor » (DJIT.42).

Xaritada *Vādī Yamar* (Yamar daryosi) ham bor, Mahmud Koshg‘ariy keltirgan she‘riy uzindilardan birida bu daryoning oti (*Yamar suwī*) qayd etilgan (*qarang*: DJIT.45).

Shimoli-sharq tomonda bir ko‘l joylashgan. Ila, Ertish, Yamar suvlari turli tarafdin unga kelib quyiladi.

Shunday qilib, «Devonu lug‘at-it-turk»da keltirilgan Yer yuzi xaritasi turkiy dunyoning tarixiy-geografik o‘rni, uluslar yerlashuvi, davlat va shaharlari tarixini o‘rganishda eng ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘GUZ URUG‘LARINING OTLARI VA ULARNING TAMG‘ALARI

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘at-it-turk» asarida turkiy *oyuz* qavmi haqida ma‘lumot berar ekan, uning tarixi, necha urug‘dan iborat ekanini yozgan. Eng qizig‘i, shu yerda har qaysi urug‘ning tamg‘asi haqida to‘xtalib, ularning shaklini ham keltirgan. Shu o‘rinda Koshg‘ariy yozganlarining o‘zbekcha o‘girmasini keltiramiz. Koshg‘ariy yozadi:

أَغْزُ *oyuz* – turklarning bir qabilasi. O‘g‘uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug‘dir. Ularning har birining maxsus belgilari, mollariga mos tamg‘alari bordirkim, urug‘larni shu tamg‘alariga qarab ayiradilar.

Birinchisi va boshliqlari قِنْقُ *qiniq* – qiniqlardir. Zamonamizning xoqonlari shu qiniqlar urug‘idandir. Mollarining tamg‘asi shunday: 𐰇

Ikkinchisi, قَيْغُ *qayig* – qayig‘lardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇

Uchinchisi, بَايُنْدُرُ *bayundur* – bayundurlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇

To‘rtinchisi, ٲا *iwa* – ivalardir. Ularni يٲا *yüwa* lar deb ham ataydilar.

Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇

Beshinchisi, سَلْغُرُ *salgur* – salg‘urlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Oltinchisi, أَفْشَارُ *awšar* – avsharlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Yettinchisi, بَكْتَلِي *begtili* – begtililardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Sakkizinchisi, بُكْدُزُ *bügdüz* – bukduzlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

To‘qqizinchisi, بَيَاتُ *bayat* – bayatlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘ninchisi, يَزْغُرُ *yazgür* – yazg‘irlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n birinchisi, اَيْمُرُ *eymür* – eymurlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n ikkinchisi, قَرَابُولُكُ *qarabölük* – qarabo‘luklardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n uchinchisi, اَلْقَابُولُكُ *alqabölük* – alqabo‘luklardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n to‘rtinchisi, اِغْدَرُ / اِغْدَرُ *igdar* / *igdir* – igdarlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n beshinchisi, اُرَگِرُ *ürägir* – uragirlardir. يۈرَگِرُ *yürägir* – yuragir ham deydilar.

Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n oltinchisi, تۈتۈرۈقا *tutırqa* – tutirqalardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n yettinchisi, اُولَايۈندۈلۈ *ulayundluy* – ulayundlug‘lardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n sakkizinchisi, تۈگۈر *tögär* – to‘garlardir. Ba‘zan vāv harfi tushirilib, تۈگۈر

shaklida ham yozadilar. Tamg‘alari shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

O‘n to‘qqizinchisi, پەچەنەك *pečänäk* – pechanaklardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Yigirmanchisi, چۈالدار *čuvaldar* – chuvaldarlardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Yigirma birinchisi, چەپنى *čepni* – chepnilardir. Tamg‘asi shunday: 𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇𐰇

Yigirma ikkinchisi, چارۈقلۈ *čaruqluy* – charuqlug‘lardir. Bularning soni oz, tamg‘alari noma‘lum.

مَحْمُودُ *Maḥmūd* (Koshg‘ariy) aytadi: Bu urug‘larni bilishga kishilarning ehtiyoji borligi uchun birma-bir izoh berdim. Bu tamg‘alar ularning mollari va podalarining belgisidir. Mollari aralashib ketganda har urug‘ o‘z molini shu tamg‘alardan ayirib oladi.

Bular asosiy qabilalardir. Ularning har birining aymoqlari bor. Qisqartish uchun ularni yozmadim (DJIT.36–37).

QADIMGI XALQ QO‘SHIQLARI VA SHE‘RIYATI

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asarida turkiy so'zlar ma'nosini ochiqlash maqsadida, o'rni bilan, she'riy to'rtliklar va baytlar keltirilgan. She'rlar mazmunan boy va turli tuman bo'lib, xalq ijodidan saylab olingan Ushbu uzindilarni yig'ib, bir doston yoki bir qancha qo'shiqqa jamlash ham to'g'ri emas. Asarni yozgunga qadar muallif qanchadan-qancha xalq dostonlari va qo'shiqlarini yig'ib chiqqan (buni o'zi ham kitobning kirish qismida aytib qo'yibdi). O'shalardan olingan uzindilar asar bo'ylab sochilib yotibdi. Qolaversa, bu she'riy asarlar turli davrlarga oid; ayrimlarining ildizi ikki-ikki yarim ming yil nariga ketadi. Bu xususiyatlariga ko'ra, o'tmishda yaratilgan lug'atlar orasida turkologiyadagina emas, butun sharq leksikografiyasida ushbu asarga tenglashadigani topilmaydi.

Qo'lyozmada ushbu she'riy uzindilar *vaqāla* jumlasini bilan boshlanib, ular qirmizi rangda sarlavha ko'rinishida ajratib yozilgan. Ushbu jumla o'zidan keyingi she'riy matnlarning mazmuniga muvofiq holda «(Shoir) shunday degan», «(Bilimli) shunday degan», «(Ko'pni ko'rgan donishmand) shunday degan» singari ma'nolarni beradi.

Xalq qo'shiqlaridan olingan she'riy uzindilarni ham mazmuniga ko'ra bir qancha turkumga ajratsa bo'ladi: marsiyalar, ov qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari, bayram va o'yin-kulgu qo'shiqlari, pandnomalar, lirik she'rlar singari.

«Alp Er To'nga» marsiyasi

Alp Er To'nga turklarning o'tmishda o'tgan mashhur xoqonlaridan, dovyurak pahlavonlaridan edi. «Qutadg'u bilig»da uning oti ikki xil: asarning Namangan nusxasida *Tuya Alp Er*, uyg'ur yozuvli Hirot nusxasida esa *To'nga Alp Er* shaklida kelgan. Yusuf Xos Hojibning yozishicha, *To'nga Alp Er* ni tojiklar [ya'ni forslar] *Afrāsiyāb* deganlar. Muallif bu pahlavon to'g'risida yozadi:

Körü bersä emdi bu türk begläri,
Bu türk beglärinä taqi yegläri.

Bu türk beglärinä atı belgölüg,
Tuya Alp Er erdi quti belgölüg.

Beđüg bilgi birlä öküš erdämi,
Biliglig uquşluğ bođun köđrümi.

Täzıklär ayur anı Afrāsiyāb,
Bu Afrāsiyāb tutti ellär talap.

Eđi artuq erdäm keräk-ol bilig,
Orun tutyuqa ötrü sunsa elig.

Täzıklär bitigä bitimiš muni,

Bitigdä yoq ersä, kim uqʻay anı (QBN.17a,8–13).

(Endi boqib koʻrsang, bu turk beglari,
Bu turk beglaridan yanada yaxshilari.

Turk beglari orasida oti belgili
Tugʻa Alp Er edi, quti belgili.

Bilimi buyuk, hunari talay,
Bilimli, zakovatli, xalq orasida sarasi.

Tojiklar uni Afrosiyob deb aytadilar,
Bu Afrosiyob ellarni oʻz tasarrufida tutdi.

Oʻta ortiq sanʻat (va) bilim kerak,
Soʻng jahon tutishga qoʻl sunsa boʻladi.

Tojiklar uni kitobda yozib qoldirganlar,
Kitobda yozilmaganida, uni kim ham bilardi).

Alp Er Toʻnga haqida turkiy adabiyot tarixida koʻplab sheʼrlar bitilgan, doston toʻqilgan. Turkiy xalq ogʻzaki ijodining eng koʻhna dostonlaridan biri ham ana shu afsonaviy qahramonga bagʻishlangan. Biroq, bu doston toʻliq holda saqlangan emas, undan ayrim uzindilar qolgan, xolos.

Mahmud Koshgʻariy «Devonu lugʻati-t-turk» asarida «alp, qahramon» anglamidagi *alp* soʻzini izohlar ekan, Alp Er Toʻnganing oʻlimiga bagʻishlab aytilgan bir toʻrtlikni keltiradi; maʼnosiga koʻra uni yirik bir marsiyaning uzindisi deyish mumkin. Uning keltirgan toʻrtligi shunday:

Alp Er Toʻnga öldimü?	7=2+2+3
Esiz, aʻzun qaldimu?	7=2+2+3
Ödläk öçin aldımu?	7=2+2+3
Emdi yüräk yırtılur (ДЖТ.31).	7=2+2+3

Maʼnosi shunday boʻladi: «*Alp Er Toʻnga = Afrāsiyāb* oʻldimi? Esiz, dunyo (undan ayrilib) qoldimi? Falak undan oʻchini oldimi? Endi yuraklar (uni eslab) chok boʻlmoqda».

Keltirilgan toʻrtlik qanday marsiyaning uzindisi ekanligi bilan koʻpchilik olimlar qiziqqan. Buning yechimini topishga unnaganlardan biri Abdurauf Fitrat boʻladi. U oʻzining «Eng eski turk adabiyoti namunalari» asarida «Devonu lugʻati-t-turk»dagi sheʼriy uzindilarni turkumlashtirib chiqdi va har biriga nom qoʻydi. Shulardan birinchisini «Alp Er Toʻnga marsiyasi» deb atab, unga kitob boʻylab sochilib yotgan oʻnta sheʼriy uzindini kiritadi (*qarang*: Фитрат 2008,14–20).

Fitrat tiklagan marsiyaning ilk bandi yuqorida keltirilgan toʻrtlikdir.

«Alp Er Toʻnga marsiyasi»ga taalluqli deb keltirilgan toʻrtinchi toʻrtlik shunday:

Ögräyüki munday-oq, $7=4+3$
Munda adin tilday-oq, $7=2+2+3$
Atsa azun oyrap oq, $7=2+2+2+1$
Taylar bási kertilür (DJIT.78). $7=2+2+3$

Maʼnosi: «Zamonaning oʻrgangan odati shunday, bundan boshqa bahonalari ham bor. Agar dunyo moʻljallab turib oʻq otsa, togʻlarning boshi (ham) parchalanib ketadi».

«Alp Er Toʻnga» marsiyasiga nisbat berilgan sakkizinchi toʻrtlik esa shunday:

Ulišip erän börläyü, $8=3+2+3$
Yirtip yaqa urlayu. $7=2+2+3$
Sıqrip üni yurlayu, $7=2+2+3$
Sıyrap közi örtülür (DJIT.88). $7=2+2+3$

Maʼnosi: «*Afrāsiyāb* ning oʻlimiga achinib, kishilar boʻrilardik uvlashdilar, yoqa yirtib baqirishdilar. Cholgʻu tovushi singari ovozda baqirishdi. Ularning koʻzi (yoshdan) qoplandi».

Fitratning fikrida jon bor, ushbu marsiyaga tegishli deb chamalanayotgan toʻrtliklar mazmunan ham bir-biriga yaqin boʻlib, ularni bir-biriga bogʻlasa boʻladi.

Ikkinchidan, har qaysi toʻrtlikning oxirgi satri oʻzaro qafiyadosh boʻlib keladi: ... *yirtilur*, ... *kertilür*, ... *örtülür* singari.

Yana bir jihati, sheʼrlarning Mahmud Koshgʻariy tarafidan keltirilgan arabcha talqinlarida ayni toʻrtliklarda soʻz *Afrāsiyāb* toʻgʻrisida borayotgani urgʻulangan.

Chamasi, ushbu marsiya Alp Er Toʻngaga bagʻishlangan xalq eposidan olingan koʻrinadi. Mahmud Koshgʻariy ushbu marsiyani kishilar ogʻzidan yozib olgan. Devonda keltirilgan soʻzlar maʼnosini ochiqlash uchun uning toʻrtliklaridan foydalangan.

Ov qoʻshiqlari

Chiyaboʻri ovini maqtab aytilgan qoʻshiq mana bunday:

Uđu barip öküş ewdim,
Telim yurup küči kewdim.
Atim birlä tegü ewdim,
Meni körüp yesi aydı (DJIT.81).

Ushbu toʻrtlikning maʼnosi shunday boʻladi: «Izma-iz borib koʻp kezdim, uzoq quvib kuchdan toldirdim. Otim bilan tegrasida aylana boshlagandim, meni koʻrib esi ogʻdi».

Ov itini maqtab aytgan sheʼri shunday:

İtim tutup quđi čaldı,
Aniñ tüsin qıra yulđı.
Başın alıp quđi saldı,
Boıuz alıp tügäl boydı (DJIT.215).

Sheʼrning maʼnosi shunday: «İtim (boʻrini) tutib, yerga yiqitdi, uning yunglarini yuldi, boshidan olib yerga agʻdardi va boʻgʻzidan olib qattiq boʻgʻdi».

Qahramonlik qoʻshiqlari

Öpkäm kelip oıradım,
Arslanlayu kökrädım.
Alplar başın toıradım,
Emdi meni kim tutar? (DJIT.63).

«Achchigʻim kelib (yovga qarshi) xezlandim, arslon yangligʻ oʻkirdim. Alplarning boshini qilichdan oʻtkazdim, endi meni kim ham tuta olardi?».

Jangni taʼriflab aytilgan sheʼrlardan boshqa biri shunday:

Alplar arıy alqışur,
Küč bir qİLİp arqaşur.
Bir-bir üzä alqaşur,
Eđgärmädİp oq atar (DJIT.104).

«Botirlar toza jang qildilar, kuchlarini birlashtirib, bir-birlariga koʻmaklashdilar. Ular bir-birini maqtashardi, oʻlimdan choʻchimay oʻq otardi».

Tünlä bilä köčälim,
Yamar suwın kečälim.
Teräñük suwın içälim,
Yuwya yayı uwulsun (DJIT.210).

-älim – soʻzlovchi koʻpligining istak shakli: *köčälim* – «koʻchaylik», *kečälim* – «kechaylik», *ičälim* – «ichaylik» degani; *Yamar suwı* – daryoning oti.

Yuqoridagi sheʼrning maʼnosi shunday boʻladi: «Tuni bilan koʻchaylik, Yamar suvini kechaylik. Qaynab chiqayotgan suvidan ichaylik, bizga boʻysunmaydigan yov parcha-parcha boʻlsin».

Yov qo‘shinini yenggan bir erni ta’riflab aytgan she’ri shunday:

Ani yetip sünülädi,
Bašin yanduru yañiladi.
Erän bayup münjilädi,
Aniñ alpın qara boydı (DJIT.462).

Ma’nosi: «U yovga yetib, nayza sanchdi, bitgan yarasini yangiladi. Tushgan o‘ljalarni kishilarga bo‘lib berdi, yov botirlarini bo‘g‘di».

Mavsum qo‘shiqlari

Xalq qo‘shiqlarining ko‘pchiligi ko‘klam ta’rifiga bag‘ishlangan.
Ko‘klamni ta’riflab aytilgan qo‘shiqlardan biri shunday:

Qar, buz qamuγ erüşdi,
Taylar suwı aqışdı.
Kökşin bulit örüşdi,
Qayyuq bolup egrişür (DJIT.87).

«Qor va muzlarning hammasi erib tugadi, tog‘larning suvi oqdi. Ko‘kda bulutlar o‘rladi, ular qayiq yanglig‘ suzdilar».

Yoki boshqa bir qo‘shiqda shunday:

Türlüg ččäk yazildi,
Barčın yađim kerildi.
Učmaq yeri körüldi,
Tumluy yana kelgüsüz (DJIT.60).

Qo‘shiqda kechgan *barčın yađim* – «gulli gilam» anglamida; *učmaq* – «jannat», *učmaq yeri* – «jannat yeri»; *tumluy* – «sovuq» degani.

Ko‘klamni ta’riflab aytgan qo‘shig‘ining mazmuni shunday bo‘ladi: «Turli chechaklar ochildi, (go‘yo) guldor gilam yozilganday bo‘ldi. Jannat yeri ko‘rindi, endi sovuq qaytib kelmaydi».

Mavsum qo‘shiqlarining ba’ziları fasllarning o‘zaro munozarasiga bag‘ishlangan. Jumladan, ularning birida Qish bilan Yoz o‘rtasida tortishuv kechadi:

Qış yay bilä toquštı,
Qıñır közün baqıştı.
Tutuşqalı yaqıştı,
Utyalı-mat oyraşur (DJIT.82).

Qo'shiqda kechgan yay – «yoz» ma'nosida, *toqušti* – «to'qnashdi»; *közü*n – vosita kelishigida bo'lib, «ko'z bilan» degan ma'nodadir; *yaqışti* – «yaqinlashdilar»; *utyalı-mat* – «yutish uchun», *-mat* – ta'kid yuklamasi.

To'rtlikning ma'nosi shunday ochiqalanadi: «Qish Yoz bilan to'qnashdi, (bir-biriga) qing'ir ko'z bilan qarashdi. Bir-birini tutishga yaqinlashishdi, (biri birini) yutishga intilishardi».

Bayram va o'yin-kulgu qo'shiqlari

O'yin-kulguni tasvirlab aytilgan qo'shiqlardan biri shunday:

Yigitlärig işlätü,
Yıyaç yemiş ırıratu,
Qulan, keyik awlatu,
Bädräm qılıp awnalım (DJIT.111).

Yuqoridagi qo'shiqning mazmuni quyidagicha bo'ladi: «Yigitlarni ishlatib, daraxtlardan mevalarni qoqtirib, qulon va kiyiklarni ovlatib, bayram qilib ovunaylik».

Lirik she'rlar

Turkiy lirik she'riyatning boshlanishi deganda, biz asosan, o'rta asrlar klassik adabiyotini tushunamiz. Aslida esa turkiy lirik she'riyatning ildizini, poetik mahorat masalalarini ancha naridan – qadimgi turkiy og'zaki she'riyatdan boshlaganimiz to'g'ri. Nihoyatda go'zal tashbehlar, hech kimsaning o'y-xayoliga kelmas ta'riflarga, badiiy san'atlarga duch kelamiz ularni o'qib. Ko'z o'ngimizda, oddiy, jo'ngina ko'ringan she'r va qo'shiqlarda so'z san'atining teran an'analari, so'z ustalarining yuzyilliklar osha yiqqan tajribalari jamlangan. She'rlarda turkiy tilning boy va cheksiz imkoniyatlari ishga solingan. Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlar ma'nosini ochiqlash maqsadida keltirgan she'riy uzindilarni xalq badiiy tafakkurining eng ko'rkli va diltortar, qadimgi turkiy lirikaning ajoyib namunalari desa bo'ladi.

Lirik she'rlardan olingan uzindilarning ko'pi 7 bo'g'inli; bundan oz yoki ortiq bo'g'inlilari ham bor; ular turli zamonlarda to'qilgan turli qo'shiq va she'rlardan olingani uchun ham shunday; to'rtliklarning qofiyalanishi *a-a-a-b*; *a-a-a-a*; *a-b-s-b*; ikkiliklarning qofiyalanishi esa *a-a* shaklidir.

Endi she'rlar semantikasini bir qancha to'rtlik va baytlar misolida ko'rib chiqamiz.

«Devonu lug'ati-t-turk»da *ulas köz* degan misol berilgan. Muallifning izohiga qaraganda, uning ma'nosi «suzik, yoqimli ko'z; xumor ko'z» degani. Bu sifat qadimgi turkiy poetikada mahbuba ko'zining ta'rifida keladi, she'rning badiiy-

estetik qimmatini oshiradi. Uning she'riyatdagi ma'nosini ochiqlash uchun asarda shunday to'rtlik keltirilgan:

Bulnar meni ulas köz,
Qara meñiz, qizil yüz.
Andin tamar tükäl tüz,
Bulnap yana ol qaçar (DJIT.37).

Ushbu to'rtlikda kechgan *bulnar* – «o'ziga tortadi, asir qiladi» ma'nosida; *meñiz* – xol; Navoiyning ta'rificha, «ulug', chiroyli xol» ana shunday atalgan; *tüz* – «to'g'ri; tekis», shuningdek, qadimgi turk she'riyatida sevikli qizning shirin so'ziga nisbatan ham qo'llanadi «shirin, yoqimli so'z» anglamida; *Andin tamar tükäl tüz* – «Uning tilidan shirinlik tomadi» degan ma'nodadir.

To'rtlikda aytmoqdaki: «Qora holli, qizil yuzli xumor ko'z meni asir qiladi. Uning tilidan shirinlik tomadi. Asir qiladi-da, so'ng ko'zdan qochadi».

Boshqa bir lirik to'rtlik *iwriq* so'zining ma'nosi bilan bog'liq. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, *iwriq* – «ko'zacha, may ichiladigan jo'mrakli idish»dir. Bu atamaning poetik ma'nosini ochiqlash uchun lug'at muallifi shunday she'rni o'rnak qilib keltirgan:

İwriq baši qazlayu,
Sayraq tolu közläyü,
Saqinč quđi kezläyü,
Tün-kün bilä sewnälüm (DJIT.53).

To'rtlikda kechgan *iwriq baši* – «ivriqning boshi», ya'ni «may idishining jo'mragi» anglamida; *qazlayu* – «g'oz kabi» degani (-layu – o'xshatish qo'shimchasidir); *sayraq* – «ivriqning tubi» degani; *Sayraq tolu közläyü* – «Ivriqning tubi ko'z kosasidek to'lgan» degan ma'noni anglatadi. Yana bir jihati: ushbu tashbehda «ivriqdagi may» – muhabbat ramzi, idish tubining mayga to'laligi – «qayg'u-alam; ayriliq» ramzidir, buni keyingi satrda uning *saqinč* so'zi bilan berilayotganligi ham tasdiqlab turibdi; *kezläyü* – asli «berkitib, yashirib» degani, lekin bu yerda qayg'u-alamga nisbatan qo'llanayotgani uchun poetik anglamda «tashlab, ko'mib, uloqtirib» deya tushunmoq kerak.

Bu she'rda aytilmoqdaki: «Ivriq [may idishi]ning boshi g'oz kabidir, tubi ko'z (kosasi)day (yoshga) to'lgan. Qayg'uni uning tagiga ko'maylig-u, kecha-kunduz sevinaylik».

Yana bir she'r *tuzaq* so'zining ma'nosi bilan bog'liq. Mahmud Koshg'ariy *tuzaq* so'zi ikki ma'noda ishlatilganligini ta'kidlagan: birinchisi – «ov arqoni, tuzoq»ni bildiradi; uning ikkinchi ma'nosi – «kishi o'z seviklisiga suyub aytadigan so'zi». Muallif so'zning ushbu ma'nolarini ochiqlash uchun quyidagi to'rtlikni misol keltiradi:

İglädi meniñ ađaq,

Körmäðip oyri tuzaq.
İglädim andin uzaq,
Emlägil emdi, tuzaq (DJIT.153).

Ushbu she'rda kechgan *iglädi* fe'lining anglami – «yaraladi» (*ig* – «kasal» so'zidan yasalgan); *körmäðip* – «ko'rmay»; *emlägil* – «davolagil» degani (*em* – «davo» so'zidan); to'rtlikdagi *tuzaq* so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: *oyri tuzaq* – «yashirin tuzoq»; so'nggi qotordagisi esa ko'chma ma'noda bo'lib, «sevikli yor»ni anglatadi; *Emlägil emdi, tuzaq* jumlasida «Ey sevgilim, endi dardimni o'zing davola» deya yorga murojaat qilinmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda, to'rtlikning ma'nosi quyidagicha bo'ladi: «Yashirin tuzoqni ko'rmay, mening oyog'im ilindi. Uzoq vaqt qiynaldim, ey seviklim [ya'ni *tuzaq*], endi o'zing davola».

Lug'atda *andiqti* so'zi bor; masalan, *er andiqti* deydilar, bu «kishi ont ichdi» degani. Buning badiiy adabiyotda ishlatilishiga shunday misol berilgan:

Qoyyaşip yatsa anñ yūziñä,
Alsīqar ögin anñ söziñä.
Miñ kişi yuluyi bolup öziñä,
Bergälär ödin anñ köziñä (DJIT.105).

She'rda kechgan *alsīqar ögin* – «es-xushini o'g'irlaydi, yo'qotadi» degan ma'noda (*ög* – «aql; fikr» degani). Hozirgi o'zbek tilida ishlatilayotgan *öy-fikr, öylä* so'zlaridagi *öy* ham o'sha so'zning o'zgargan variantidir. Yoki yana chog'ishtiring: qadimgi turkiyda *ögä* deydi, «aqli, dono» degani. Hozirgi *örgät* so'zimiz ham o'tmishda *ögrät* deyilgan; turkchadagi *öğretmen* so'zi ham ana shu o'zakdandir; uchinchi qatordagi *yuluyi bolup* – «fidosi bo'lib; qurboni bo'lib»; so'nggi qatordagi *bergälär ödin* – «jonlarini bergaylar» ma'nosida.

Aytmoqdaki: «Uning qo'ynida unga qarab yotgan kishi mayin va yoqimli so'zlariga o'zini yo'qotadi, mahliyo bo'ladi. Uning husniga ming kishi jon berishga rozi bo'ladi».

«Devonu lug'ati-t-turkda»gi eng chiroyli tashbeh ishlatilgan lirik she'rlardan biri *butaq*, ya'ni «butoq» so'zi bilan bog'liq. Koshg'ariyning yozishicha, shevalarda bu so'zning *butiq* varianti ham ishlatilgan. Lug'atda buning poetik vazifasi bilan bog'liq shunday bayt berilgan:

Kim ayip, eštür qulaq:
Ay ewi artuč butaq? (DJIT.152).

Ushbu baytda kechgan *Ay ewi* – «Oyning uyi» degani, bu birikma «Oy burji»ni ham anglatadi; qadimgi turkiy tilda «burj»ni ham *ew* deyilgan; *artuč butaq* – «sanubar daraxtining butog'i» (qadimgi turkiyda «sanubar daraxti» *artuč* atalgan); *Ay ewi artuč butaq* jumlası – «Oyning uyi, ya'ni turar yeri sanubar butog'idadir» degan ma'noni anglatadi. Buning bilan seviklisining bo'y-basti sanubar daraxtiga,

uning yuzi esa to'lin kechada sanubar ortida ko'rinayotgan to'lin oyga o'xshatilmoqda. To'lin oy go'yo sanubar daraxtiga qo'nib turganday shoirning tasavvurida. Hayolga kelmas, quloq eshitmagan, o'ta ajoyib ta'rifdan ajablangan shoir: «Oyning uyi hamda turar yeri sanubarning butog'idir, deb kim aytgan va (bunday chiroyli sifatni) qaysi quloq eshitgan?» deya hayratlanmoqda. Qadimgi turkiy lirikaning shoh satrlaridan desa bo'ladi bu baytni.

Yoki go'zal tashbeh ishlatilgan boshqa bir misol. Lug'atda *yulaq* degan so'z berilgan, muallifning ta'kidlashicha, u «bir qancha kichik-kichik suv yo'llari; jilg'alar» degani. Bu so'zning poetik ma'nosi quyidagi baytda yaxshi ochiladi:

Aqturur közüm yulaq,
Tüş qılur ördäk, yuʻyaq (DJIT.329).

Baytda kechgan *aqturur* fe'lining ma'nosi – «oqizadi» deganidir; ayni satrdagi *yulaq* so'zi ko'z yoshiga tashbeh qilinmoqda; *tüş qılur* – boshqa bir o'rinda xuddi shu bayt keltirilib, unda *tüşlänür* deb berilgan – «(suvga) qo'nadi» ma'nosidadir; *yuʻyaq* – o'rdak singari suvda suzuvchi bir qushning oti.

Buning bilan aytniqdagi: «Ko'zimdan oqqan yosh suvlari jilg'alarga aylanmoqda. Unga o'rdak va boshqa suv qushlari qo'nayotir». Naqadar chiroyli bayt.

«Devonu lug'ati-t-turk»da *qıwal burun* degan so'z birikmasi bor. Muallifning ta'kidlashicha, «kelishgan, chiroyli burun» ma'nosini bildiradi bu birikma; u go'zallar ta'rifida ishlatiladi. Yana aytilishicha, «bunday burun hamma uchun sevimlidir».

Bu so'zning poetik ma'nosini ochiqlash maqsadida joriyani maqtab aytilgan bir she'r misol keltiriladi:

Ardi seni qiz,
Bodi anij tal.
Yaylir anij artuci,
Burni taqi qıwal (DJIT.165).

To'rtlikda kechgan *ardı* – «aldadi» ma'nosida; *bodı* – «bo'y-basti»; *artuç* – «sarv daraxti»; odatda, klassik adabiyotda go'zalning tik qomati sarv daraxtiga tashbeh qilinadi; *Yaylir anij artuci* – «(uning noziknihol qomati) sarv daraxtining navdasidek egiladi» ma'nosidadir; *taqi* – «yana; tag'in» ma'nosida bo'lib, ta'kidni bildiradi.

Bu she'rda aytilmoqdagi: «Seni yumshoq badanli qiz aldadi. (Uning noziknihol qomati) sarv daraxtining navdalari singari egilar edi. Burni ham chiroyli, kelishgan edi».

«Devonu lug'ati-t-turk»da *bodursin* so'zi keltirilgan, ma'nosi «bedana» degani. Muallif bu so'zning ma'nosini ochiqlash uchun oshiq sevgisini vasf etuvchi quyidagi baytni misol qilib keltirgan:

Özüm meniñ bodursın,
Otı anıñ çaqlanur (DJIT.202).

Mazmuni: «Qalbim bedana kabidir, uning muhabbat olovi ustida aylanadi». Ya'ni, «Men uning muhabbat o'ti tevaragida bedana singari aylanaman». Baytda oshiq o'zini butun o'zligi ila talvasaga tushgan bedanaga tashbeh qilmoqda.

Lug'atda *tegdi* fe'li bor; *ol ewkā tegdi* deyiladi, buning ma'nosi «u uyga va boshqa joyga yetdi» degani. Maqolda shunday kelgan: *Ewāk ewkā tegmäs*. Ma'nosi: «Shoshgan kishi uyiga yeta olmaydi». Chunki u tez choptirib otini charchatib qo'yadi, so'ng armonda qoladi. Bu moqol ishda shoshma-shosharlik qilmaslikka undab aytilgan. Bu so'zga quyidagi she'r ham misol qilib keltirilgan:

Atyalir oqni azaq,
Tegmadi bu saw uşaq (DJIT.214).

She'rdagi *azaq oq* – «adashgan, daydi o'q» degani; *atyalir* – «otmoq istaydi» ma'nosida; *saw* – «so'z, gap», *saw uşaq* – «mayda gap; ig'vo» degani; *tegmadi* fe'lini «yetmadi» deb olamiz. So'z sevgisi tufayli yigitga otilayotgan mayda gap ustida borayotir, bu ham yetmaganday sevgilisi unga qarata daydi o'qni mo'ljallamoqda.

Ikkilikning ma'nosi shunday bo'ladi: «Menga bu malomat yetmas edimi, (buning ustiga) bu sho'x qiz menga daydi o'q otmoq istaydi».

Mahmud Koshg'ariy *belgürdi*, ya'ni «bilindi; ma'lum bo'ldi» so'zining ma'nosini ochiqlash uchun shunday bir otaso'zini keltirgan: *Küz keligi yazın belgürär*. Ma'nosi: «Kuzning qanday kelishi yozda ma'lum bo'ladi». Muallifning ta'kidlashicha, bu maqol oldindan ma'lum bo'lgan, keyin keladigan narsaga nisbatan ishlatiladi. Bu so'z sharhida yana misol qilib quyidagi to'rtlik ham berilgan:

Kezläp tutar sewüglüg,
Aðriş küni belgürär.
Başliý közüg paysama,
Yaşı anıñ sawrıqar (DJIT.259).

To'rtlikda kechgan *kezläp tutar* – «yashirin tutilgan»; *aðriş küni* – «ayriliq kuni»; *başliý* – «yarali, yarador» (*baş* – «yara» so'zidan yasalgan); *Başliý közüg paysama* – «yarador, chir bo'lgan ko'zni yashirma» degani.

Yuqoridagi to'rtlikning ma'nosi shunday bo'ladi: «Yashirin tutilgan sevgi ayriliq kuni bilinib qoladi, ma'lum bo'ladi. Yarali va kasalga chalingan ko'zni yashirma, yoshi oshkor qiladi».

Keltirilgan poetik uzindilar orasida ishqning o'tli azobi ta'riflangan she'rlar ham bor. Masalan, lug'atda *tutandi*, ya'ni «tutadi» so'zining ma'nosini ochiqlash uchun berilgan baytda sevgining ta'rifi yaxshi berilgan:

Üdik otı tutunup,

Öpkä, yüräk qoʻrulur (DJIT.251).

Sheʼrda kechgan *üdik* – «tuygʻu; hayajon», yaʼni «sevgi-muhabbat tuygʻusi» maʼnosida; *qoʻrulur* – «qovruladi» degani.

Sevgining taʼrifi aytilgan baytning mazmuni shunday boʻladi: «Qachon sevgi oʻti yonsa, undan yurak, oʻpka va uning tevaragidagi aʼzolar kuyib qovruladi».

Eski turkiy tilda *sizyurdī* soʻzi «eritdi» degan maʼnoda ishlatiladi. Masalan: *er yay sizyurdī* deydi, bu «kishi yogʻ va boshqa narsalarni eritdi» degani.

Mahmud Koshgʻariyning taʼkidlashicha, isitma bemorni holdan toydirishiga ham shu soʻz qoʻllanadi. Bunga misol keltirilgan bayt shunday:

Könli küyüp, qanī qurup, ayzī ačip qatʻyurar,
Sizyuryalir üdüklär / üdiklär essiz yüzi burqarar (DJIT.264).

Bu sheʼrda aytmoqdaki: «Dili kuyib, qoni qurib, qah-qah otib kuladi. Ishq uni eritib yuborar darajada, bechoraning yuzlarini sargʻaytirardi». Yaʼni, «U qotib kuladi-yu, lekin ishq uning dilini yondirgan, qonini quritgan, chehrasini achinarli holda soʻldirgan».

Asarda *yīraq*, yaʼni «yiroq, uzoq» soʻzining poetik maʼnosi bilan bogʻliq holda shunday bayt berilgan:

Oyrayīm kendü yīraq,
Bulnadī meni qaraq (DJIT.332).

Ushbu baytda kechgan *oyrayīm* – «borar yerim»; *kendü* – «oʻz», yaʼni oʻzlik olmoshidir; *qaraq* – «koʻz» degani, bu yerda poetik anglamdagi «qorakoʻz», yaʼni «mahbuba» nazarda tutilmoqda.

Aytmoqdaki: «Borar yerim uzoq edi, (lekin) qorakoʻz meni (yoʻlda) asirga oldi».

Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, *yelwi* soʻzi «sehrlash» degani; «sehrlovchi» maʼnosidagi *yelwiči* ham ana shu soʻzdan yasalgan. Muallif bu soʻzning maʼnosini ochiqlash maqsadida oʻz sevgan kishisini taʼriflab aytgan bir toʻrtlikni misol keltiradi:

Yelwin anīñ közi,
Yelkin anīñ özi.
Tolun ayin yüzi,
Yardī meniñ yüräk (DJIT.334).

Toʻrtlikda kechan *yelwin* – «sehrlovchi, sehrgar, oʻziga rom etuvchi» maʼnolarida. Poetikada bu sifat koʻproq goʻzallarning koʻziga nisbatan ishlatilgan; *yelkin* – soʻzma-soʻz olganda «musofir» degani, Mahmud Koshgʻariy ham arabcha tarjimada uni *musāfir* deb oʻgʻirgan. Lekin u sheʼrda suyukli yorga nisbatan ishlatilmoqda, shuning uchun uni «yel singari, qoʻnimsiz, koʻzdan gʻoyib boʻluvchi»

deya tushunilgani ma'qul; *yardi* – asl ma'noda «yordi» degani, lekin yurakka nisbatan ishlatilib, *Yardi meniñ yüräk* deyilganda «mening yuragimni yordi» deya talqin qilib bo'lmaydi, «yurak-bag'rimni chok qildi» deyilgani to'g'ri.

O'rnak sifatida keltirilgan to'rtlikning ma'nosi shunday talqin qilinadi: «Uning ko'zi kishi (ko'ngli)ni ovlaydigan sehgardir. O'zi yel singari, qo'nimsiz, ko'zdan g'oyib bo'luvchi, yuzi (esa misli) to'lin oydir. (Bir boqishi bilan mening), yurak-bag'rimni chok qildi».

Muallif *yükündi*, ya'ni «bosh egdi; yukundi» so'zining ma'nosi to'g'risida so'z yurita turib, oshiq sevgan kishisining tunda kelishini ta'riflab aytgan bir to'rtlikni misol keltiradi:

Yüknüp menä imlädi,
Közüm yašin yamladı.
Bayrım bašin emlädi,
Elkin bolup ol keçär (DJIT.352).

To'rtlikda kechgan *yüknüp* – «ta'zim qilib; egilib» ma'nosida; *yamladı* – «artdi; ketkazdi»; *Közüm yašin yamladı* – «ko'zimning yoshini ketkazdi, aritdi» degan ma'nodadir; *bayrım bašin* – «bag'rim yarasini» degani (*baş* – «yara» anglamida); *Bayrım bašin emlädi* – «Dilim yarasini davoladi» deb tushuniladi; so'nggi satrdagi *elkin* so'zi *yelkin* ning bir shaklidir, «yelday kelib ketuvchi, beqaror» ma'nolarida.

To'rtlikning ma'nosi shunday bo'ladi: «U meni qaytadan tiriltirdi. Menga ta'zim qilib, imo qildi. Uni ko'rib ko'zimning yoshini ketkazdi, bag'rim yarasi sog'aydi, o'zi esa bir ko'rindi-yu, yelday ketdi».

Ayrim she'rlarda oshiq o'z sevgilisiga sizlab murojaat qiladi. Mahmud Koshg'ariy turklardagi sizlab gapirish to'g'risida so'z yurita turib yozadi: «O'g'uz va qipchoqlar birlikda *bar*, ko'plikda *bariñ* deydilar. Ular ko'plik qo'shimchasi *-lar* ni tushirib qoldiradilar; *-lar* o'rniga tinglovchi birligida *-iñiz* qo'shimchasini qo'llaydilar. Hurmat uchun bir kishiga ham <-zā> harfini orttiradilar, ular tilida bir kishiga nisbatan ham ko'plik ustiga ko'plik qo'llanadi», – deb yozadi.

Lug'at muallifining turkiy hurmat shakliga o'rnak qilib keltirgan to'rtligi shunday:

Awlap meni qoymanjiz,
Ayıq ayıp qaymanjiz.
Aqar közüm-uş teñiz,
Tegrä yürä quş uçar (DJIT.221).

Qiz bolaning o'z seviklisiga aytayotgan so'zlarining ma'nosi shunday bo'ladi: «Meni ovlab o'zingizga asir qilganingizdan keyin, xo'rlab tashlab qo'ymangiz, va'daga vafo qilingiz, ko'z yoshlarim dengiz suvi kabi oqayotir. Uning tegrasida qushlar uchib yuribdi».

Ko'z yoshi sho'r bo'lgani uchun dengizga o'xshatilmoqda.

Aytish mumkinki, turkiy lirik she'riyatining ildizlari ilk o'rta asrlar xalq og'zaki she'riyatiga borib taqaladi. «Devonu lug'ati-t-turk»da keltirilgan ishqiy mazmundagi to'rtlik va baytlar lirik she'riyatimizning ilk namunalari.

«Devonu lug'ati-t-turk» eski turkiy tilning boy lug'ati va mukammal tuzilgan grammatik asaridir. Kitobda nihoyatda boy so'zlar qatlami jamlangan, ularning ma'nolari xalq qo'shiqlari, dostonlarning uzindilari, otaso'zlari, iboralar, o'sha davr jonli tilidan olingan misollar orqali ochib berilgan. Ayniqsa, asarda keltirilgan she'riy to'rtlik va baytlarning ahamiyati katta. Ular qadimgi turkiy og'zaki adabiyotning nihoyatda boy o'tganidan dalolat beradi. Lug'atda berilgan so'z ma'nolarini ochiqlashda she'riyatdan misol keltirish tarixiy leksikografiyaning, aniqrog'i, Mahmud Koshg'ariyning ulug' kashfiyotidir. Haqiqatan, lug'atlarda she'riy misollar berilganda so'zning poetik ma'nosi, eng nozik qirralari yaxshi ochilar ekan. Buni keyingi davr lug'atchiligida ham kuzatamiz. Xususan, eski o'zbek tili, o'zbek klassik ijodkorlari asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlar ham ayni an'anani saqladi.

QADIMGI XALQ OTASO'ZLARI

Ulug' tilshunos Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'ati-t-turk» asarida turkiy so'zlar ma'nosini jonli misollarda ochiqlab berish uchun xalq og'zaki ijodidan olingan she'riy uzindilar bilan bir qatorda, xalq maqollaridan ham o'rnaklar keltirgan. «Devonu lug'ati-t-turk»ka jamlangan otaso'zlari qadimgi turk og'zaki adabiyotining klassik namunalari. Muhimi shundaki, ularning tarixiy genezisi, ildizlari miloddan burungi davrlarga borib taqaladi.

Maqol – ota-bobolarning qirq yil kuzatib, bir aytgan so'zi. Unda xalqning falsafiy qarashlari, erkin fikri ixcham, lo'nda va badiiy shaklda aks etadi. Maqolni xalq falsafiy-badiiy tafakkurining, donishmandligining gultoji desa bo'ladi. Dunyo turg'uncha o'z qiymatini, qadrini yo'qotmaydigan xazinadir ular.

Qadimgi turkiy maqollarda badiiylik kuchli. Jumla qurilishi va uslubiga ko'ra ularni she'riy asar deyish mumkin.

«Maqol»ni qadimgi turklar *saw, öt- saw, ögüt, qumaru söz, ata so'zi* degan.

«Devonu lug'ati-t-turk» arab tilida yozilgani sababli, asardagi maqollarni Mahmud Koshg'ariy *maşal* deb atagan. Chunki arablar «maqol»ni *maşal* deydi.

Endi maqollarning berilish tartibini bir-ikki o'rnakda ko'rib chiqamiz:

Asarda *a:č* so'zining ma'nosini ochiqlash uchun shunday maqol keltirilgan: *A:č ne yemäs, toq ne temäs*. Ma'nosi: «Och nimalarni yemaydi, to'q nimalar demaydi» (DJIT.44).

«Ot, hayvon» anglamidagi *at* so'zining ma'nosini jonli misolda ko'rsatish uchun shunday maqol berilgan: *Quş qanatın, er atın*. Ma'nosi: «Qush qanoti bilan, er oti bilan» (DJIT.28).

«Cho'l va sahrolarda yo'l ko'rsatish uchun qo'yiladigan belgi tosh» anglamidagi *ula* so'zining ma'nosini jonli misolda ko'rsatib berish uchun quyidagi maqol keltirilgan: *Ula bolsa, yol azmas, bilig bolsa, söz yazmas*. Ma'nosi: «Belgi

bo'lsa, odam yo'ldan adashmaydi, aqli bo'lsa, kishi so'zda yanglishmaydi» (DJIT.50).

Öd keçär, kişi tuymas, yalıñuq oyli mänğü qalmas. Ma'nosi shunday: «Zamon kechar, kishi tuymas, inson bolasi mangu qolmas» (DJIT.32).

Mahmud Koshg'ariy turkiy maqollarni keltirar ekan, ayrim o'rinlarda uning qanday vaziyat va holatda ishlatilishini ham aytib o'tadi. Masalan, *ayiz*, ya'ni «og'iz» so'zining ochiqalmasi uchun shunday maqol berilgan: *Ayiz yesä, köz uđazur.* Ma'nosi: «Og'iz yesa, kuz uyalur». Shundan keyin esa: «Bu maqol birovning biror narsasini yeganlar uning hojatini chiqarishdan tortinishi mumkin emasligini ko'rsatish uchun aytiladi», deya ta'kidlab qo'yadi olim (DJIT.36).

Yoki: *uđuz*, ya'ni «qo'tir» so'zining ma'nosini ochiqlash uchun shunday maqol keltirilgan: *Tilkü öz inikä ürsä, uđuz bolur.* Ma'nosi: «Tulki o'z iniga qarab ulisa [irillasa, hursa], qo'tir bo'ladi». Shundan keyin: «Bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi», deya ta'kidlab qo'yadi olim (DJIT.36).

Asarda «ho'kiz» anglamidagi *öküz* so'ziga shunday maqol keltirilgan: *Öküž ađaqi bolyinča, buzayu baši bolsa yeg.* Ma'nosi: «Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq». Ushbu maqoldan keyin: «Bu maqol «mustaqillik bo'ysunishdan yaxshi» degan ma'noda qo'llanadi», deya qo'shib qo'yadi olim (DJIT.37).

Ayilda oylaq tuysa, ariqda otı ünür. Ma'nosi: «Og'ilda uloq tug'ilsa, ariqda o'ti unadi». Ushbu maqoldan so'ng: «Bu maqol ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg'urish kerak emasligini anglatish uchun aytiladi», deya ta'kidlab qo'ygan Koshg'ariy (DJIT.39).

Xalq maqollarida variantlilik kuchli: bir mazmundagi maqol turli ko'rinishda uchrashi mumkin. Anglashiladiki, Koshg'ariy unisini ham, bunisini ham yiqqan. Masalan, *qutsuz / qowı er* (omadsiz, baxtsiz kishi) haqida aytilgan bir maqol shunday: *Qutsuz quduğqa kirsä, qum yağar.* – «Baxtsiz quduqqa tushsa, (ustidan) qum yog'iladi. Suvi quriydi» (DJIT.182).

Boshqa bir o'rinda esa ushbu maqol shunday kelgan: *Qowı er quduğqa kirsä, yel alir.* – «Baxtsiz kishi quduqqa tushib olsa ham, shamol uni qiynash uchun chiqarib tashlaydi» (DJIT.402).

Yoki boshqa bir o'rnak. Mahmud Koshg'ariy *ađıy*, ya'ni «ayiq» so'zini izohlash uchun shunday maqolni keltirgan: *Awçı nečä al bilsä, ađıy anča yol bilir* (DJIT.39). Ushbu maqoldagi *al* so'zi «hiyla, nayrang» ma'nosidadir. Shundan kelib chiqib, maqol ma'nosini «Ovchi ov hiylalarini qanchalik bilsa, ayiq ham qochish yo'llarini shunchalik biladi» deb izohlagan. Olimning ta'kidlashicha, «bu maqol ikki tajribali kishi o'zaro tortishib qolganda aytiladi».

«Devonu lug'ati-t-turk»da ushbu maqol *tew* so'zining izohida ham keltirilgan. *Tew* so'zi ham *al* ga sinonim bo'lib, «hiyla, nayrang» ma'nosini anglatgan. Qizig'i shundaki, yuqoridagi maqolning boshqa bir varianti keltirilganda, *tew* so'zining o'rnida *al* yozib yuborilgan: *Awçı nečä al [tew deyilmoqchi] bilsä, ađıy anča yol bilir* (DJIT.136). Maqolning ma'nosi yuqorida keltirilgan variantidagi singaridir.

Kitobda keltirilgan otaso'zlaridan yana o'rnaklar:

Nečä munduz ersä, eš eðgü, nečä egri ersä, yol eðgü. – (Yolda) yolgʻizlikdan koʻra, qancha ahmoq boʻlsa ham, hamroh yaxshi. Choʻlda boshi oqqan tomonga ketgandan koʻra, qancha egri, qingʻir-qiyshiq boʻlsa ham, yoʻl yaxshi. Chunki [yoʻlsiz maqsadga yetib boʻlmaydi] yʻol orqaligina maqsadga yetiladi (DJIT.182).

Yer basruqi – taγ, boδun basruqi – beg. – «Yerning ogʻirligi togʻ bilan, xalqning ogʻirligi beklar bilan». Bu maqol «Yer togʻ bilan tinch turadi-yu, xalq beklar bilan tinch turadi, chunki ular yolga soladilar», degan maʼnoda qoʻllanadi (DJIT.185).

Qalīn qaz qulawuzsuz bolmas. – «Gʻoz galasi yoʻlboshchisiz uchmaydi» (DJIT.193).

Yayīn ersä keräk yundaqi tegir. – «Dushmaningda boʻlsa ham ot boʻlsin, eng kami, uning tezagi tegadi, uni yoqib foydalanasan» (DJIT.339).

Alp yayida, alčaq čoyida. – «Botir yov bilan toʻqnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi» (DJIT.31).

Oylaq yiliksiz, oylan biligsiz. – «Echki bolasida ilik yoʻq, yosh bolada aql yoʻq» (DJIT.60).

Keñäšlig bilig üdräšür, keñäšsiz bilig opräšür. – «Maslahatli ish borgan sari yaxshilanib boradi, maslahatsiz ish borgan sari buzilishga yuz tutadi» (DJIT.102).

Qarya qarīsīn kim bilir, kiši alasīn kim tapar. – «Qargʻaning qarisini kim ayira oladi, kishining olasini kim bila oladi» (DJIT.170).

Uyyur yīyač uzun kes, temür qīsya kes. – «Yogʻoch kessang, uzun kes, temir kessang, qisqa kes, chunki temirni choʻzsa boʻladi» (DJIT.212).

Tilīn tügmīšni tišīn yazmas. – «Til bilan bogʻlanganni tish bilan yechib boʻlmas» (DJIT.214).

Yazmas atīm bolmas, yañilmas bilgä bolmas. – «Oʻq otishda xato qilmaydigan ovchi, yanglishmaydigan bilimdon boʻlmaydi» (DJIT.344).

Qaniy qan bilä yumas. – «Qonni qon bilan yuvilmaydi» (DJIT.346).

Bilmiš yek bilmäδük kišidän yeg. – «Tanish shayton notanish kishidan yaxshi» (DJIT.378).

Tirig esän bolsa, taγ öküš körür. – «Kishi eson [sogʻ] boʻlsa, qiziq narsalarni koʻp koradi» (DJIT.38).

Esändä ewäk yoq. – «Sogʻliqda shoshilish yoʻq» (DJIT.44).

Qirq yilqa tegin bay čīyay tüzlinür. – «Qirq yilgacha boy bilan kambagʻal tenglashadi» (DJIT.142).

El qalir, törü qalmas. – «Mamlakat qoladi [yaʼni oʻzgaradi], odat qolmaydi» (DJIT.400).

Erkäch eti em bolur, ečkü eti yel bolur. – «Takaning eti em boʻladi, urgʻochi echkinining eti yel boʻladi» (DJIT.51).

Yilan kendü egrisin bilmäs, tewäy boynin egri ter. – «Ilon oʻzining egriligini bilmaydi-da, tuyaning boʻynini egri deydi» (DJIT.64).

Alplar birlä urušma, beglär birlä turušma. – «Botirlar bilan urushma, beklar bilan xusumatlashma, tiklashma» (DJIT.86).

Qarya qazqa ötkünsä, buti sinur. – «Qargʻa kuchanib, uchishda oʻzini gʻozga oʻxshatsa, buti sinadi» (DJIT.109).

Qiz kiši sawi yoriyli bolmas. – «Baxil kishining dovrug‘i chiqmaydi, shuhrat qozonmaydi» (DJIT.135).

Kül ürgünčä, köz ürsä yig. – «Kul puflaguncha, cho‘g‘ puflagan yaxshi» (DJIT.138).

Tayyan yügürgänni tilkü sewmäs. – «Yugurik (chopqir) tozini tulki sevmaydi» (DJIT.213).

Saçiratjudin qorqmış quş qırq yıl adri yiyaç üzä qonmäs. – «Tuzoqdan bir marta qo‘rqqan qush qirq yilgacha ayri yog‘ochga qo‘nmaydi» (DJIT.312).

Qulan quduqqa tüssä, qurbaqa ayyir bolur. – «Qulon (yovvoyi eshak) quduqqa tushsa, cho‘l qurbaqasi ayg‘ir bo‘ladi» (DJIT.364-365).

Tewäy bedüg ersä, mayaqi bedüg ermäs. – «Tuya katta bo‘lgani bilan, tezagi katta emas» (DJIT.380).

Yaqadaqi yalyayali eligdaki içyinur. – «Yoqadagi yuqni yalash bilan ovora bo‘lgan kishi qo‘lidagidan quruq qoladi» (DJIT.427).

Qudüyda suw bar, it burni tegmäs. – «Quduqda suv bor, ammo unga itning burni yetmaydi» (DJIT.151).

Xan işi bulsa, qatun işi qalir. – «Xonning ishi chiqsa, xotunning ishi qoldiriladi» (DJIT.164).

Yazidaqi süwlin edärgäli, ewdägi taqayu içyinma. – «Qirg‘ovul oviga chiqsang, uydagi tovuqni unutma» (DJIT.178).

Aş tatiiyi tuz, yoyrin yemäs. – «Osh tuz bilan totli, lekin laganda yolg‘iz tuzning o‘zi yeyilmaydi» (DJIT.333).

Tamu qapuyin açar tawar. – «Pora (hatto) do‘zax eshigini ochadi, nega boshqa (joylar eshigi)ni ochmas ekan» (DJIT.404).

Ot tütünsüz bolmas, yigit yazuqsuz bolmas. – «O‘t tutunsiz bo‘lmaydi, yigit gunohsiz bo‘lmaydi» (DJIT.328).

Yilan yarbuzdin qaçar, qanča barsa, yarbuz otu kelür. – «Ilon doim yarbuzdan qochadi. Ilon qayoqqa qochsa, u qarshisidan chiqadi» (DJIT.337).

Bütün ümlüg qanča qulsa olturur. – «Butun ishtonli [ishtoni butun] qanday xohlasa, shunday otiradi» (DJIT.99).

Tüzün birlä uruş, utun birlä tiräşmä. – «Yumshoq kishi bilan olish, u sendan yengilishi mumkin. Qattiq yuzli bilan olishma, u seni yengadi» (DJIT.166).

Elig tutyinča, ot tut. – «(Birovga) kafil bo‘lguncha, olov ushlash yaxshi» (DJIT.299).

Tewäy münüp qoy ara yaşmas. – «Tuya mingan kishi qo‘ylar orasida yashirinolmaydi» (DJIT.345).

Kişi sözläşü, yilqi yidlaşu. – «Kishilar bir-birini so‘zlashib bilishganidek, hayvonlar bir-birini hidlashib biladi» (DJIT.358).

Bir tilkü terisin ikilä soymas. – «Bir tulki terisini ikki martalab shilinmaydi» (DJIT.409).

Yalñus qaz ötmäs. – «Yolg‘iz g‘ozning tovushi chiqmas» (DJIT.454).

RISOLADA HAVOLA ETILGAN ASARLAR:

ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.

DLT – *Kâşgarlı Mahmud. Dîvânu Lugâti't-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin.* Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu. – Ankara, 2014.

К – Kul tigin bitigi: Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. – Алматы, 2003. С. 153–170.

МК – *Kaşgarlı Mahmud. Dîvânü Lûgati't-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile.* – Ankara, 1990.

Mun. – «Munshaot»: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 317 / 1513 ko'rsatkishli Navoiy kulliyotida (387b–406a).

СЦ – «Syuan-tsan kechmishi» asari: Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюань-цзана. – Москва, 1991.

ТСД – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони [Dîvânu luğati-t-türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Истанбул, 2021.

Yug – Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqoyiq» asari: A – asarning 1444 yili Samarqandda ko'chirilgan uyg'ur yozuvli nusxasi: Arat 1992: S. I–LXII; B – asarning 1480 yili Istanbulda uyg'ur yozuvida bitilib, tagma-tag arab yozuvida o'qilishi berilgan nusxasi: Arat 1992: S. LXIII–CXVII; C – asarning XVI yuzyilda arab xatida ko'chirilgan nusxasi: Arat 1992: S. CXVIII–CLXVI; H – asarning Gollandiyada saqlanayotgan arab yozuvli nusxasi: *Edib Ahmed Yükneki.* Atebetü'l-Hakâyik. İnceleme - Tenkitli Metin - Tıpkıbasım. Hazırlayan: S. Çakmak. – İstanbul, 2019. S. 420–468.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» masnaviysi: H – Vena (Hirot) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Радлов В.В.* Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; N – Namangan (Farg'ona) nusxasi: O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, 1809 ko'rsatkichli qo'lyozma. *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; Q – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- ko'rsatkichli qo'lyozma: *Yusuf Has Hacib.* Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Arat 1992 – *Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki.* Atebetü'l-Hakâyik. R.R. Arat. – Ankara, 1992.

Рустамов 1976 – *Рустамов А.* Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида. // «Адабий мерос» (5). 1976. 39–42- б.

Содиқов 2018 – *Содиқов Қ.* Илк ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган этнолингвистик жараёнлар. – Тошкент, 2018.

Содиқов 2020 – *Содиқов Қ.* Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент, 2020.

Ҳасанов 1963 – *Ҳасанов Ҳ.* Маҳмуд Кошғарий (Ҳаёти ва географик мероси). – Тошкент, 1963.

Фитрат 2008 – *Фитрат.* Энг эски турк адабиёти намуналари (Адабиётимизнинг тарихи учун материаллар). Нашрга тайёрловчи О. Ҳамроева. – Тошкент, 2008.

MUNDARIJA

Kirish
«Devonu lugʻati-t-turk» qoʻlyozmasi va asarning tuzilishi
«Devonu lugʻati-t-turk»ning ilmiy nashrlari
Mahmud Koshgʻariy keltirgan uygʻur alifbosi
«Devonu lugʻati-t-turk»da keltirilgan yer yuzi xaritasining oʻqilishi
Oʻguz urugʻlarining otlari va ularning tamgʻalari
Qadimgi xalq qoʻshiqlari va sheʼriyati
Qadimgi xalq otasoʻzlari
Risolada havola etilgan asarlar